*Samarqand davlat universiteti*

*Musiqiy ta’lim yo’nalishi*

*“Musiqa o’qitish metodikasi xalq cholg’u asboblari” kafedresi.*

*“Mahalliy uslublarga xos aytimlarni urganish va tahlil qilish”*

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

*Bajaruvchi:* *M.Normurodova*

*Ilmiy rahbar:* *B.Boltaev.*

*Samarqand – 2014*

# O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

# ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

## MUSIQIY TA’LIM YO’NALISHI

***“Musiqa o’qitish metodikasi xalq cholg’u asboblari”***

**MAVZU:** “***Mahalliy uslublarga xos aytimlarni urganish va tahlil qilish***”

## BITIRUV MALAKAVIY ISHI

***Bajaruvchi:*** ***M.Normurodova***

***Ilmiy rahbar:*** ***B.Boltaev.***

Bitiruv malakaviy ishi Musiqa o’qitish metodikasi va xalq cholg’ asboblari kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014– yil 28–maydagi majlisda muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. ( bayonnoma № 10)

**Kafedra mudiri:** **E.Djalilov**

Malakaviy bitiruv ishi YakDAKning 2014 – yil ____ – iyundagi majlisida himoya qilindi va _____foizga baholandi. (bayonnoma № ___)

YakDAK raisi: ______________________
A’zolari: ______________________
______________________
______________________

**Samarqand – 2014**

**Mahalliy uslublarga xos aytimlarni urganish va tahlil qilish.**

## M U N DA R I J A.


**KIRISh:........................................................................................ 2-7**

**I.BOB. Mahalliy uslublarining o'ziga xos xususiyatlari va ularni musiqa darslariga joriy etish muammolari 8-34**

1.1 O'zbek xalq musiqasining tarixiy ildizlari. 8-21

1.2. Mahalliy uslublarining uziga xos xususiyatlari. 22-34

**II.BOB. Musiqa madaniyat darslarida o'zbek xalq usiqasini o'rganish yullari imkoniyatlari. 35-60**

2.1Surxandaryo-Qashqadaryo mahalliy uslublarini musiqa darslariga joriy etish yo'llari 35-48

2.2. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq musiqasini o'rganish imkoniyatlari . 49-59

Umumiy xulosalar..........................................................................

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati................................................

Ilovalar ..........................................................................................

**Kirish**

Bugungi kunda yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda, kunlik ijtimoiy xayotimizda ma’naviy va axloqiy qadriyatlarimizning o’rni beqiyosdir. Bu borada asrlar osha xalqdan-xalqqa ustozdan shogirdga o’tib kelayotgan xalq ma’naviyati xazinasining bebaho boyligi bo’lgan o’zbek xalq musiqa merosi bo’lmish xalq qo’shiqlari yoshlar tarbiyasida o’lkan ahamiyat kasb etadi. Jumladan xalq donishmandligining go’zal ko’rinishi bo’lgan o’zbek xalq qo’shiqlari yoshlar ma’naviy kamolotning shakllantirishining vositasi sifatida oila, bolalar bog’chalari maktablarda maktabdan tashqari musiqiy mashg’ulotlarda atroflicha o’rganishligi muhimdir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov konservatoriya yangi binosining ochilish marosimida so’zlagan nutqida ta’kidlaganidek «Odamzod yozish chizishni, o’qishni bilmasligi mumkin lekin shubha yuqki go’zal kuy ohang va taronalarning xayotbaxsh tasirini har qanday vaziyatda ham sezadi» degan edi. Shuning uchun ham musiqa insonga hamisha hamroh uning tuyg’ulariga ruhiyatiga qanotdir. Xalqimizning milliy musiqa san’ati nihoyatda qadimiydir. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati, oliy insoniy fazilatlari, badiiy madaniyati istiqlol va mustaqillik uchun kurash hamda orzu umidlari aks etadi. «Musiqa deb atalmish ilohiy bu mo’jizada shunday bir sehr mujassamki, uni tushunish, ta’sirini sezish uchun hech qanday tarjimonning keragi yuq» degan edi prezidentimiz I.A.Karimov shuning uchun ham uning musiqasi shu qadar qadimiydir.

Milliy musiqamiz sarchashmalariga tayangan ne-ne hofizlar jahon ko’lamida obro’-e’tibor qozonganlar. Bu musiqiy merosimizni bilishimiz o’rganishimiz kerak.

Uning asosida o’zbek xalqining milliy ruhiyati, istiqlol g’oyalari yotadi.
Milliy musiqa ta’limining asosiy maqsadi musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasiga yetkazishdan iborat «Yosh qalbga ta’sir

ko'rsatishning ko'plab vositalari orasida musiqa katta o'rin egallaydi. Musiqa va axloq – bu chuqur o'rganilishi va tadqiq etilishi zarur bo'lgan masaladir. Musiqa tufayli odamdagi oliyjanoblik, ulug'vorlik, go'zallik tashqi dunyodagina emas balki uning o'zida ham mavjud ekanligi to'g'risida tasavvur yuzaga keladi. Musiqa o'z – o'zini tarbiyalashning qudratli vositasidir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, musiqa darslari jarayonida o'quvchilarning manaviy va ahloqiy sifatlarini shakillantirishda o'zbek xalq qo'shiqlarinin o'rni ahamiyatli ekanligini unutmaslik shart. Chunki yuqorida eslatganimizdek, xalq qo'shiqlari «Xalqning jonli ensiklopediyasidir»

Biz yoritayotgan mavzu musiqa darslari jarayonida o'zbek xalq qo'shiqlarini mahalliy uslublarga xos aytimlarni atroflicha o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bu mavzu shu kunning dolzarb muamolaridan biridir.

**Ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi:** Mustaqil Respublikamiz ta'lim tizimidagi qo'llanilayotgan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan kelib chiqib shuni takidlash lozimki, har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson o'zida iymon – e'tiqod, mehr-shavqat, vatanparvarlik, do'stlik muruvvat, qanoat va sabr-toqat, sahiylik, samimiylik milliy g'urur kabi fazilatlarni shakllantirish lozim.

Yoshlar haqida prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edilar «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir». Haqiqatdan ham yoshlarimiz bilimdon, mehnatsevar, jasorat va fidoyilikka hamisha tayyor turgan holda Vatanimizga sadoqatli bo'lishlari lozim.

Mustaqil O'zbekistonda ro'y berayotgan mana shunday ijobiy o'zgarishlardan hamda yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasini yanada takomillashtirish maqsadida biz o'zimizning ilmiy – tadqiqot ishimizning dolzarbligini yana bir marta guvohi bo'ldik.

Ma'lumki o'zbek xalq musiqa merosini o'rganishning o'ziga xos xusuyatlarini umumta'lim maktablarining musiqa darslarida o'rgatib borishimiz kerak bo'ladi, chunki yosh avlodni maktab chog'idan xalqimizdan meros bo'lib qolgan xar xil udumlar, kuy va qo'shiqlarni ular ongiga singdirib borsak xalq

merosiga bo’lgan qiziqishlari yanada ortib boradi. Chunki musiqa o’quvchilarni hissiy jarayoniga ta’sir qilib, ularda ijobiy sifatlarni shakllantirishga asosiy manba bo’lib xizmat qiladi. Barcha fanlar qatori musiqiy ta’limda ham davlat ta’lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to’laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo’shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o’z aksini topdi. Musiqa san’atining bu kabi imkoniyatlari barkamol avlodni tarbiyalashda, ularning yetuk bo’lib yetishishlarida o’ziga xos va takrorlanmas manba bo’lib xizmat qiladi.

Azaldan, sharq, mamlakatlari jumladan o’zbek musiqa ta’lim – tarbiyasi pedagogikasi va uning mukkamal uslubiyatlari, ustoz va shogird an’analari misolida takomillashib boradi.

Davlat ta’lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarning elimentar asarlarini o’rgatishni meyorlashtiradi.

**Ilmiy izlanishning maqsadi:** umumta’lim maktab musiqa darslari jarayonida o’quvchilarida o’zbek xalq musiqiy merosinining mahalliy uslublariga xos bo’lgan aytimlarni o’rganishni jadallashtirish, xalq merosiga bo’lgan xurmatini oshirish xar xil laparlar, katta qo’shiqlar, xalq marosimlarida ijro etiladigan qo’shiqlarni o’quvchi yoshlar ongiga singdirishdan va an’anaviy musiqa asarlarini o’rganishning forma va uslublarini ishlab chiqish.

Qo’yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi masalalarni aniqlash vazifasi qo’yiladi:

1. Maktab o’quvchilarining badiiy didni shakllantirish va xalq merosini o’rganish imkoniyatlarini aniqlash.

2. Musiqa darslarida o’quvchilar tomonidan musiqani imotsional – hissiy qabul qilishi, musiqa asarlari, uning obrazlarini, kayfiyati, xarakterini pedagogik-psixologig tahlil qilish ko’nikma va malakalarini shkallantirish.

3. Respublikada hozirgi vaqtda musiqa darslarini tashkil qilish holatini aniqlash.

4. O’quvchilarning badiiy didlarini shakllantirishda o’zbek xalq musiqa merosini o’rganish orqali musiqa darslarining optimal yo’llarini belgilash.

5. O’zbek xalq musiqa merosi va qo’shiqlarni o’rganish hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

6. An’anaviy musiqa asarlarni o’rganish va tahlil qilish uchun ko’rgazmali vositalar va aniq takliflarni ishlab chiqish.

**Ilmiy tadqiqot obekti:** Samarqand shahar XTBga qarashli 29-sonli umumta’lim maktabi 6-7 sinf musiqa darsi an’anaviy asarlarini o’rganish.

**Ilmiy tadqiqot predtmeti:** O’zbek xalq musiqa merosini mahalliy uslublariga xos autimlarini o’rganishning o’ziga xos xususiyatlarini musiqa darslari jarayonida foydalanishdan iborat.

Ilmiy tadqiqot ishimiz quyidagi optimal uslublardan foydalanishni taqozo qiladi.

1. O’zbek xalq musiqa merosini maktab musiqa o’qituvchisining o’zi chuqur tahlil qilgan holda o’quvchilarga o’rgatishi kerak.

2. O’tiladigan har bir musiqiy darsining asosiy maqsadining aniqligini ta’minlash.

3. Musiqa darslarida ta’lim va tarbiyaviy vositalarning chambarchasligi.

4. Darsdagi har bir tarbiyaviy maqsad va vazifaning izchilligi.

5. Musiqa darsining har bir bo’limi uchun mazkur musiqa asariga ta’luqli o’quv materiallarini to’g’ri tanlash.

6. Eng samarali natija beradigan uslublardan foydalanish.

7. Har bir musiqa asarining o’quvchilarni imotsional – hissiy qabul qilish jarayonida indivudual xususiyatlarni hisobga olish.

8. Musiqa darsining tashkiliy qismini aniqligi.

9. Musiqa darsida individual va jamoa bilan ish olib borishni to’g’ri yo’lga qo’yish.

10. Har bir sinf o’quvchisining individual holatini yaxshi bilish.

11. Olib boriladigan pedagogik uslublarning turlicha bo’lishi mazmundorligi, imosionalligi va tempini aniqlash.

12. Musiqa darsining jihozlanishi (musiqa asboblarining ko’rgazmali vositalari, darsliklari nota plakatlari, texnik vositalar) ta’minlash.

**Tadqiqot vazifalari:** Mavzuga oid ilmiy –tadqiqotlar, ilmiy – uslubiy adabiyotlarni o’rganish;

- umumta’lim maktablari musiqa darslarini mavjud holatini o’rganish,

- ilg’or, tajribali o’qituvchilar bilan mavzu yuzasidan suhbatlar o’tkazish, ularning tajribalarini o’rganish;

- o’quvchilarni o’zbek xalq musiqa merosini mahalliy uslublariga xos aytimlarni kuylashga o’rgatishning samarali ish shakl uslublarini aniqlash;

- o’quvchilarni o’zbek xalq musiqa merosini mahalliy uslblariga xos aytimlarni kuylash malakalarini shakllantirishga yo’naltirilgan faoliyatni samaradorligini ta’minlashga yo’naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** 1. Umumta’lim maktablari musiqa darslarida o’quvchilarni o’zbek xalq musiqa merosini mahalliy uslublarini o’rganish va qo’shiq kuylash malakalarini shakllantirishninig o’ziga xos nazariy uslubiy asoslari aniqlandi va umumlashtirildi;

2. O’quvchilarni o’zbek xalq musiqa merosini mahaliy uslublatini o’rganish malakalarini shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali tizimi ishlab chiqiladi;

3. O’quvchilarni o’zbek xalq musiqa merosini mahalliy uslublarini o’rganish, qo’shiq kuylash malakalarini shakllantirish usul, shakllari, vositalari va ularning samaradorligi aniqlandi.

**Tadqiqotning amaliy ahamyati:** Tadqiqot natijasida umumta’lim maktablari musiqa darslarida o’zbek xalq musiqa merosini mahalliy uslubalrini o’rganish va kuylash malakalarini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari ishlab chiqildi.

**Tadqiqot metodlari:** adabiyotlarni o’rganish, tahlil qilish, kuzatish, suhbat, savol – javob, anketa – so’rov, pedagogik eksperiment, matematik stasistika, xulosalash.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O’zbekiston_Respublikasining mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g’oyasi, «Ta’lim haqida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Umumiy o’rta ta’limning musiqiy ta’lim bo’yicha Davlat ta’lim

Standarti va o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning ma'naviyat, ta'lim, san'at, tarbiyaga oid farmonlar, asarlari, ma'ruzalari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining shu yo'nalishdagi Qarorlari, shunindek, o'rta asr sharq allomalari, taniqli olimlar, san'at arboblari, ilg'or pedagoglarning mavzu yo'nalishidagi fikr va qarashlari; mustaqillik yillarida O'zbekiston olimlarining o'zbek xalq musiqa merosini o'rganish mavzularida bajargan ilmiy tadqiqotning xulosalar bilan tanishish.

**Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi:** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, ikki paragraf, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat.

## I-bob “Mahalliy uslublarining o’ziga xos xususiyatlari va ularni musiqa darslariga joriy etish muammolari”

### 1. 1.O’zbek xaiq musiqasining ildizlari va shakllari.

Musiqaga oid qadimiy topilmalar, yozilgan traktatlar o’zbek musiqasining nihoyatda boy va xilma-xilligidan dalolat beradi.

Nota yozuvlari xali mavjud bo’lmagan davrlarda bu asarlar og’izdan-og’izga, ustozdan –ogirdga, ajdoddan-ajdodga o’tkazilib kelingan 1933 yilda Ayrtomda topilgan noyob haykalchalar bu haqda yaqqol guvohlik beradi.

Bu tarixiy ash’orlar ichida buyuk qomusiy olimlarimizning musiqa san’ati haqidagi traktatlari ayniqsa qimmatlidir.

X asrda yashab ijod qilgan Muhammad Forobiyning musiqa nazariyasi bo’yicha yozib qoldirgan asarlari o’zbek musiqasi taraqqiyotining rivoj topishida ayniqsa muhimdir. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot ishiga xos qomusiy asarida inson ruxiyatini tiklash va uning sog’ligini ta’minlashda musiqaning ahamiyati xaqida asosli dalillar keltiradi va uni o’z faoliyatida qo’llab, undan ijobiy natijalarga erishadi.

Abduraxmon Jomiyning musiqa haqida traktat nazariy bilimlarga keng o’rin berilgan va ayniqsa o’zbek musiqasining og’zaki namunalaridan bo’lgan maqomlarning qaysi biri qay payitda ijro etilishi haqida batafsil tavsiya berib o’tdi. Rus tilida «Slova ne otnimi ot melodii», ya’ni so’zni ohangdan ajratib bo’lmaydi degan ibora mavjud. Ammo buni har doim ham oltin bahosida qabul qilaverish yaramaydi. Zamonlar o’zgarishi bilan bir davrning mafkurasiga mos kelgan so’zlar boshqasiga to’g’ri kelmay qoladi. Ammo yaratilgan bebaho go’zal ohangdan voz kechib uni istimoldan chiqarib tashlash mutloqo yaramaydi.Mashhur didaktik asar «Qobusnoma»da ham hofizlik va san’atkorlikning qoidalariga bag’ishlangan alohida bob o’rin olgan.

Zaminimizda o’tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida to’ilgan dutorga, surnay,qonunga, nayga o’xshash sozlar, toshlarga o’yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, miniatyura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o’lkamizda ijrochilik san’ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo’lmish Maqom, Mo’g’om, Dastgoh, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan - avlodga og’zaki ravishda o’tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz sanhatkorlarning fikri ҳamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O’rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o’n ikki (Duvozdax) maqom mavjud bo’lgan. Bular «Ushshoқ», «Navo», «Buzalik»,«Rost», «Xusayniy», «Xijoz», «Rohaviy», «Zangula», «Iroқ», «Isfaҳon», «Zirofkand», «Buzurg».Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo’lsak, ulug’ olim Mirzo Ulug’bek Tarag’ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvozdah maqom» (o’n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi:Xoja Abdulqo`dir ibn Adurahmon Marog’iy, Xoja Sayfidin Abdulmo’min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so’zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo’lg’on: «Maqomi rost»,«Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Rohoh», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq»,«Maqomi Xusayniy». Yana ushbu risolada ulug’ bobomiz Ulug’bekning o’zi tanbur va nog’orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy»,«Usuli ravon», «Usuliy otlig’» singari kuylarni ixtiro qilganligini ta’kidlab o’tadi.Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo’llari sayqallangan ko’rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davrigaq asoslanib har xil maqom yo’llari ham o’z o’rnini to’tganligi ehtimoldan xoli emas.Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning «Shashmaqom» (Olti maqom)i: «Buzruk»,«Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o’zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo’lsa, Farg’oniyning «Chor maқom»i (To’rt maqom), «Dugoh Husayniy»ning yettita yo’li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo’li, «Shaxnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik

yo’li ҳamda «Bayot» yo’llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Aynan shunday hollarni akademik Yu.Rajabiyning to’plamlariga kiritilgan asarlar misolida ko’rish mumkin.Xususan «Ovozim» ashullasi –«Samandaringman» - «Chamandagi gullar» - «Paxtakor qizlar» -«Olmacha anor» -«Xayroning bo’lay» - «Otmang meni toshlar bilan» -«Zavq» nomlari bilan o’zgartirilib shu davrning mafkurasiga moslab olingan.

O’zbek musiqasining xarakteri jixatidan ham bo’linib ketishini kuzatish mumkin:

Maishiy ashulalar,Epik ashulalar,Revomosion ruxdagi qo’shiqlar,Lirik va ishqiy xarakterdagi ashulalar,Turli marosimga oid ashulalar,Mehnat haqidagi qo’shiqlar Laparlar ,Bolalar qo’shiqlari kabi turlarga bo’linib ketgan.

Bu janrlardagi asarlar ichida eng ko’p uchraydigani lirik va ishqiy asarlar bo’lib, bu asarlarning aksariyat ko’pchiligi raqs xarakteriga mos keladi. Bunday asarlar Buxoro xududida ham keng tarqalgan bo’lib, u odatda «Mavrugi joni» nomi bilan yuritiladi.

Toshkent – Farg’ona ashulachiligi uslubiga xos asarlar ichida bu janr keng tarqalga bo’lib ular kuplet formasida yozilgan – yallalaridir. Yallaning birinchi «daromad» deb nomlanuvchi qismini ko’pchilik bo’lib ijro etishadi, avjli ikkinchi qismini esa odatda yakka xonanda kuylaydi.

**Masalan:** G’ayra-g’ayra dambadam
Oromi jonim qaydasan
Jononga bordim bull kesa
Bir bir bosib astogina

Birinchi bandini hamma birgalikda kuylaydi, ikkinchi bandini yakka xonanda kuylaydi.

Lirik xarakterdagi ashulalar XIX asrning oxirlari va XX asrning birinchi yarimida ko’plab yaratilgan. Bu asarlar Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Oraziy, Fitrat kabi shoirlarning g’azallariga ko’plab bastalangan, xususan «Ey nozanin», «Ul

parivash», «Nigoh aylay», «Ey vasli», «Aylading», «Chaman ichra», «Ulmasa» va xokazo ashulalarni shunday lirik asarlar sarasiga kiritsa bo'ladi.

Lirik xarakterdagi ishqiy ashulalarga xos yana bir janr, o'ziga xos mumtoz asarlar qatoriga kiruvchi «katta ashula»lardir.

Katta ashulalarni odatda ovozi tik, baland ovozli tenorlar kuylashadi. Katta ashula kuylovchilar ovozning jarangdor bo'lishi va ma'lum tomonga aniq yo'naltirilgan bo'lishini va ta'minlash uchun qo'llariga likopcha yoki patnis olib kuylayotganlarida ularni og'iz atrofida ushlab, ovozni yo'naltirib turadilar.

Katta ashulaning o'ziga xos xususiyati – u doira usulisiz, cholg'u sozlari jo'rligisiz kuylaniladi. Bu janr xonandalar ovozining qanday kuchga va shiraga ega ekanligini ko'rsatuvchi o'ziga xos bir musobaqadir.

Asarni kuylashni xonandalardan biri boshlab beradi. Ikkinchisi esa uni davom ettiradi. Katta ashulalarning qiziqarli tomonni unda go'yo ikki xonanda kuch sinashib kurashayotgandek, kimning ovozi balandroq pardalarni olish va ovozining jozibaliligi, qung'iroqligi bilan ustunroq ekanligi namoish etiladi. Asar odatda past pardalardan boshlanadi, sungra tezgina o'rta avjiga va tezgina katta avjiga o'tiladi. Xofizlarning o'zaro hamkorligini ko'rsatuvchi narsa ular bir birlariga o'z ovozlarini xamohang etishga imkon berishadi va shuning uchun ham ular navbatma-navbat kuylashadi. Faqat kupletlarning yakunlovchi qismlarida birga qo'shilishib kuylashadi va baxsga do'stona yakun yasashadi.

Katta ashulalar odatda xassos shoirlarning mazmundor she'rlariga, g'azallariga bitiladi. Katta ashulalarning aksariyat ko'pchiligi Navoiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Xaziniy kabi shoirlarning g'azallariga bastalangan. Ular ichida «Bir kelsin», «Ko'p erdi», «Adashganman», «Shafoat», «Noma yozmading».

O'zbek bastakorlari ham bu janrni rivojlantirishda o'z xissalarini qo'shganlar. Bastakor M.Mirzayev o'zi bastalagan «Mehnat ahli» ashulasi haqida shunday hikoya qildi:

«Biz san'atkorlar» «Katta Farg'ona kanali»ning qo'rilishida, ochilishida tez-tez konsert berib turar ekan. Shu yerda yangi bir asar «Mehnat ahli» yaratildi. Uni Fotima Burxonova, Halima Nosirova, Zaynab Polvonovalar ijro etib berishgan. Bu

asarni O'zbekistonning sobiq rahbari Usmon ota Yusupov eshitib ko'rganlar. Ashula ularga nihoyatda manzur bo'lganidan meni quchoqlab tabrikladilar. Kiyin mendan so'radilar: «Senga qaysi mukofotni beray «Xalq artisti»mi yoki «Xizmat ko'rsatgan artist»mi?» U paytda men uning qaysi biri qimmatliroq ekanini ham o'ylamagan ekanman. O'zimcha «Xizmat ko'rsatgan artist» unvoni balandroq bo'lsa kerak deb o'ylab shuni tanladim. Menga «Xizmat ko'rsatgan artist» unvonini shu katta ashula yo'lidagi «Mehnat ahli» ashulasi uchun berilgan.

«Mehnat ahli» ashulasining birinchi qismi ansambilning rez berib turishi jo'rligida erkin ritmda katta ashula tarzida boshlanadi.

«Mehnat ahli qildi obod
Farxod dashtini gulbog'lar
Guliston endi hyech zog'lar».

Avj pardalarida vokaliz tarzidagi «Xang»lardan foydalaniladi. Asarning ikkinchi kupleti «bum-bak» usulida dadil yuritilib xalqimizning ko'rsatgan shijoatli mehnati va fidoiyligini tasvirlab beradi. Asarning uchinchi kupleti «katta ashula»ning avji sifatida baland pardalarda kuylanadi. So'ngra yana kupletdan keyin naqorat qismi ijro etilib, asar cho'zibroq tugatiladi.

O'zbek qo'shiqchiligida «Yor-yor» janri keng tarqalgan bo'lib, qiz to'ylari usiz o'tkazishni tasavvur qilib bo'lmaydi. «Yor-yor»lar Toshkentda boshqacha va Farg'ona vodiysida esa yana boshqacharoq kuylanadi. Ayniqsa uning yor-yoro deb kuylanadigan qimida bir oz farqi bor.

Xususan Toshkent Yor-yorida
Yor – yoro ke-lin kel-di
Tarzida ijro etilsa,
Namangan
«Yor – yorida» esa bu:
Yor – yoro ke-lin kel-di
tarzida, o'ziga xos yangicha qochirim bilan ijro etiladi.

Buxoro viloyatida esa «Yor-yor»lar erkaklar tomonidan ham ijro etiladi. Bunda yor-yorning bir qatorini yakkaxon ovozlardan biri kuylaydi, qolganlar esa birgalikda «Yor-yor yoroney» deb ularga jo’r bo’ladilar.

Keyingi yillarda «Yor-yorlar»ning yangi-yangi turlari paydo bo’lmoqda. Xususan «Mirzachul yor-yori» ufor usulida yozilgan bo’lib u ko’proq oddiy qo’shiqlaga ham o’xshab ketadi.

«Yor-yorlar» asosan folklor janriga mansub asar bo’lgani uchun musiqada xususan musiqali drammalar, lperalarda ham bastakorlarimiz ulardan to’liq foydalanishda.

Xususan «Gulsara» operasidagi

«Hay-hay ulan jon o’lan,

O’lan ko’rdik yor-yor

O’lan aytgan kishigayo

Raxmat ayting yor-yor»

«Yor-yor» o’zining melodik tuzilishi va xarakteri bilan boshqa «yor-yorl»lardan farq qiladi. U o’lchovi jihatidan 4/4 li bo’lib, xarakteri ham bosiq, og’irroq, asosan «Bum-baka, baka-bum» usulida ijro etiladi. Ayrim hollarda cho’zib kuylanadigan va ikki xil usulda kuylanadigan «Yor-yor» turlari ham mavjud. Xususan «Shum bola» kinofilimida bolani otiga mingdirib olgan cholning kuylagan «yor-yori» qandaydir g’amgin va xazil xarakterga ega.

«Daryo toshqin, suvlar to’lqin o’tolmayman,

Otim oriq, manzilimga yetolmayman».

Keyingi ikki qatori sho’xchan xarakterda bo’lib, unda yana umid va ishonch xislari namayon bo’ladi.

«Otginamni oriq qilgan shu mayda toshey

Ranginamni sariq qilgan ul qalam qoshey».

Shu o’rinda alohida afsus bilan ta’kidlash lozimki, o’tkazilayotgan kelin to’ylarida aytilayotgan «yor-yor»larning sifati darajasida keskin o’zgarishlar yuz bermoqda deb aytib bo’lmaydi. Xalqimizning bu muborak an’analarini munosib davom ettirish, ikki yoshning baxt kechasini nishonlovchi to’ylarimizda yangi

mazmundagi yor-yorlar yaratilishi va uni qizlarimiz hamjihat bo'lib kuylay olishlari xozircha orzu bo'lib kelmoqda.

Navro'z vaqtida – xalq sayillarida aytiladigan «Qizil gul», «Lola» nomli maxsus ashulalar bo'lgan. Hozirgi kunda bahor va Navro'zga atalgan o'nlab ashulalar mavjud. Ularda xususan «Maysa», «Sumalak», «Navro'z», «Bahor sarvinoz», «Kelmoqda Navro'z» kabi asarlarda xalqimizning bahoriy kayfiyati, fasl bilan bevosita bog'liq bo'lgan xalq an'analari haqida kuylanadi.

Marosim qo'shiqlari turiga bayram, ta'ziyaliklarda aytiladigan «yig'i»lar kiradi. Ularni ma'lum kishilar (ayollar) kuylaganlar va bu yig'ilarni tinglab hamma yuragidan g'am anduhni bo'shatishgan. Ularning birida shunday kuylanadi:

Bo'ylari o'ziga yarashgan (o)
Bemaxal jo'jalaridan adashgan (o)
Bedavo dardlarga uchragan (o)
Shirin so'zginam voy jigarim (o)

Lapar – odatda qiziqarli, hajviy xarakterdagi asar bo'lib unda kishilarning dangasalik, landovurlik, loqaydlik, beg'amlik kabi odatlari qattiq xajv ostiga olinadi. Ularning ayrimlari sevgi – muhabbat mavzusi ham tarannum etiladi. Xususan «Lapar» asarida yigitlar bilan qizlar o'rtasidagi do'stona munosabati haqida so'z yuritiladi.

«Lapar aytib asta-asta
G'animlarni qilib xasta
G'animlarni qilib xasta
Kuylashaylik asta – asta
Siz bir yonda, biz bir yonda
Siz bir yonda, biz bir yonda o!».

O'zbek musiqa marosimida bolalar qo'shiqlariga ham alohida katta o'rin berilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablari dasturlariga munosib joy kiritilgan. Bolalar qo'shiqlari yil fasillariga xos eng noyob yangiliklar haqida to'qiladi. Sertashvish ota-onalarga nisbatan tabiatda bo'ladigan o'zgarishlarni bolalar tezroq ilg'ay oladilar. Chunki ularning tabiatning yangilanishini kuzatishga bo'lgan

ishtiyoqi kattalarga nisbatan kuchliroq va bunga ularning vaqtlari ham topiladi. Bahorning birinchi guli bo'lgan boychechakni ular tol xivchinlariga bog'lab kattalarga tarqatishadi va «Boychechak» qo'shig'ini kuylashib Navro'zni, ko'klamni o'utlashadi.

Qish kunlari, xavo ochilib, qirlar erigan mahallarda bolalar «Oftob chiqdi olamga» qo'shig'ini kuylashadi. Qishning oftobli kunlarida onalar tandirlarda non yopishadi. Odatda bolalarga kulcha yopib berishadi. Kulchaning ta'mi, yangi yopilgan nonning qish havosida bug'lanib turishi ayniqsa bolalarda katta tasovvur qildiradi.

Yozning birinchi nishonlaridan bo'lgan xodisa – bu laylaklarning uchib kelishi. Ularning varrak kabi ko'kda parvoz qilishi ayniqsa bolalar uchun zavqlidir. Shunday kunlarda ko'm-ko'k o'tloqlarga chiqib «Laylak keldi, yoz kbo'ldi» deya kuylashadi.

Yomg'irli kunlarda bolalar «Yomg'ir-yog'aloq» qo'shig'ini kuylab, yomg'irda u yoq, bu yoqqa chopadilar. Shu tariqa bolalar qo'shiqlari ularning hayotini bezaydi, zavqini oshiradi, ona zaminimizga, Vatanimizga bo'lgan his – tuyg'ularni shakillantiradi.

Bolalar qo'shiqlaridan aksariyat ko'pchiligi xozirgi kunda professonal, musiqadan qanot topib ular ko'p ovozlikka aylantirilgan va musiqa qatoridan ham munosib o'rin egalagan.

O'zbek xalq musiqasining ma'lum bir qismini epik ashulalar egallaydi. O'zbek musiqiy bisotida dostonchilik janrining solmog'i alohidadir. Har bir dostonni baxshilar navbatma-navbat 5-6 soatlab ijro etishgan. Bunday dostonlardan «Gurug'li», «Alpomish», «Shaybonixon», «Oshiq g'arib» va «Shoxsanam», «Ravshanxon», «Rustamxon», «Bahrom va Dilorom», «Orzigal» kabi o'nlab dostonlar mavjud. Bu dostonlaning mu'lum bir qismi kasbiy musiqaning – musiqali dramalar, opera va baletlarning asosini tashkil qilmoqda. Ulardan ayrimlari xalq ichiga shu qadar singib ketganki ular xalqning ma'naviy dunyosini bezab turuvchi shamchiroqlarga aylangan.

Bunday qo'shiqlardan «olam o'xshaydi ovozing sani», «yerning guli chaldi», «yor aylanay qalpoq chiqqan qo'llingdan» kabilarni misol keltirish mumkin.

Ayni paytda shuni takidlash lozimki, dostonchi baxshilarning deyarlik xammasi o'z bayonlarida qahramonlar tomonidan kuylanadigan asarlarni deyarlik bir – biriga yaqin, ayrim hollarda bir xil ohangga solib kuylaydilar. Faqat kompozitorlar tomonidan yaratilgan dostonlar asosida qurilgan yirik asarlarda har bir asar qahramoni alohida o'z ovozi va o'z ohangiga ega bo'lgan. Bunda ular yo o'zlari yaratgan musiqalardan, yoki shunga mos xalq ashulalarining ohanglaridan doydalanganlar.

Ma'lumki xalq ashulalari she'riy matnlar bilan bevosita bog'langgan. Xususan o'zbek mumtoz she'riyatidagi nazm shakli ayniqsa ashulaga mos keladi. Shuningdek o'zbek mumtoz asarlarining she'riy matniga mos keladigan shakl – bu g'azallardir. Shu bilan birga she'riyatning muxammas shakli ham qo'shiq yaratishga mos keladi.

Mumtoz musiqamizning ashulachiligi bobida shunday nodir asarlarning misol keltirilishi mumkin. Masalan: «Farg'onacha jonon» «Guluzorim», «Giriya», «Asiriy», «suvora», «oromijon», «Ul sarvi gulro' kelmadi», «Qo'shchinor», «Nasrulloiy», «bayot III». «bayot v» va boshqalar.

Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqamizning bebaho na'munalaridan biri yirik hajmdagi, siklik tuzilishga ega bo'lgan janr – maqomlardir.

Maqomlarning eng ko'zga ko'ringan namunasi bu «shashmaqom»dir. Buxoro shashmaqomi – ya'ni olti maqomi o'z ichiga quyidagi qismlarni o'z ichiga olgan:

1.buzruk, 2 rost, 3navo, 4dugoh, 5segoh, 6iroq maqomlari.

Maqomlarning yana bir turi Xorazm maqomlari bo'lib u ham yirik, ko'p qismlik asardir. O'zbekistonda yana Farg'ona – Toshkent maqomi deb nomlangan uchinchi maqom turi ham mavjud bo'lib u chormaqom nomi bilan ham yuritiladi.

Farg'ona – Toshkent maqomi quyidagi 4 yirik qismlarni o'z ichiga oladi:

1 Dugoh Xusayin,2 chorgohlar,3 bayotlar,4 Gulyori Shaxnoz

Barcha maqomlar odatda ikki qismdan – mushkulot va nasrlardan tashkil topgan bo’ladi.

Mushkulot – maqomning cholg’u qismi bo’lib, unga Tasnif, Tarji, Gardun, muxammas va saqillar kiradi.

Nasr esa maqomning ashula qismi bo’lib, unga saraxbor ,talqin, mug’ilcha, qashqarcha, «Ufor» kabi nomlarni o’z ichiga oldi.

O’zbek musiqasi haqida keltirilgan dalillar uning ildizlari nihoyatda qaadimiy bo’lib, ular halqning ibtidosi bilan chambarchas bog’lanib kelishidan dalolat beradi. Xalq urf – odatlari, an’analari, bayramlari va tadbirlarida musiqa san’atining turli shakldagi janrlari bevosita ishtirok etadi. Ular asosan kichik xajmdagi folklor qo’shiqlaridan tortib yuksak professionalizm talab etuvchi maqomlargacha bo’y cho’zgan. Ayniqsa hozirgi kunda bu og’zaki an’anadagi musiqaning barcha turlaridan kasbiy musiqada keng foydalanilmoqda.

O’zbek musiqasining go’zalligi uning xilma – xil janrlardan, lirik va ishqiy ashulalardan, folklor asarlarida, kasbiy musiqadagi «katta ashula»larda, «Yor – yorlarda», «Navro’ziy» qo’shiqlarda, marosim qo’shiqlarida, «laparlar», «bolalar qo’shiqlari», «epik ashulalar», mumtoz ashulalar hamda xalq og’zaki an’anasining yirik turi bo’lgan «maqomlarda» o’zining rangbarang jilovasini topgan.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarining «musiqa madaniyati» darslari repertuarida yuqorida talqin qilingan barcha janrlardagi xalq musiqasi namunalari mavjud. Bu og’zaki an’anadagi asarlarning qay darajada kasbiy musiqaga aloqadorligini aniqlash uchun «musiqa madaniyati» dasturlari va darsliklari tahlil qilib chiqish lozim bo’ladi.

O’zbek kasbiy musiqasining rivojlanishida folklor asarlarning o’rni benihoyat kattadir. Zero xalq ohanglari eng avvalo shu oddiy folklor qo’shiqlarning ruxiyatida mujassam bo’lgan.

Barcha dunyo kompozitorlari singari o’zbek kompozitorlari ham o’zlarining yirik asarlarida simfoniya, oratoriya, opera va musiqali dramalarida o’zbek xalqining folklor asarlaridan keng foydalanganlar. Xalqning xarakterli xususiyatlari, didi, nafosati aynan shu xalq ohanglari orqali ochib berilgan.

Yosh avlodni, xususan umumiy o’rta ta’lim maktablarning o’quvchilarini kasbiy musiqa orqali tarbiyalash ularni xalq an’analari hamda zamonaviy professional musiqa namunalari bilan keng tanishtirib borish ularning qalbiga xalq ohanglarini, uning ezgu niyatlarini singdirib borish musiqa o’qituvchisining eng oliy niyati bo’lmog’i lozim.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarining «musiqa madaniyati» darslarida o’quvchilarni professionalizm tomon tayyorlab borish asosiy yo’nalish sifatida olinadi va bu mavjud dastur va darsliklarda ham o’z ifodasini topgan.

Zotan kasbiy musiqaga yuqori sinflarda katta etibor qaritilsa – da uning ilk namunalari bilan boshlang’ich sinflardan boshlaboq o’quvchilarga tanishtirib boriladi.

Musiqa kasbiga tayyorlashning asosiy elemintlaridan biri o’quvchilarni nota yozuvi bo’yicha savodli qilish va asta – sekin asarlarni nota yozuvi orqali o’rgata olish darajasiga yetkazish hisoblanadi.

Boshlang’ich sinflardan boshlab bolalar eng avvalo tovushlarning o’ziga xos xususiyatlari baland – pastligi, tovush qattiqligi elementlarining ko’rinishi va ularni ijroda foydalanilish yo’llari xaqida bilim berish hamda ma’lum malaka va ko’nikmalar xosil qilish tutiladi. O’quvchilar o’zbek xalq musiqasiga xos eng oddiy janrlarni o’rganishni  boshlaydilar. Ular xalqimiz sevib tinglaydigan kasbiy (mumtoz) asarlarni ham o’rganib boradilar.

O’zbek musiqasining muqadimasi bu shoir A.Oripov she’riga kompozitor M.Burxonov tomonidan kuy bastalagan «O’zbekiston Davlat Madhiyasi» hisoblanadi. Mazkur madhiya o’zbek xalqining faxri, iftihori, Vatanga bo’lgancheksiz muhabbati namunasidir. O’zbek kasbiy musiqasini yaxshi bilgan kompozitor o’z asarini aynan shu xalq og’zaki an’analaridagi maqomlardan, katta ashulalardan, mumtoz kuylardan ta’sirlanib yozgan. M.Burxonov an’anadagi musiqani chuqur bilmaganida uning yaratgan madhiyasi bunchalik xalq ichida qadr topmagan bo’lardi. Uning siri ham aynan shu xalqchiligidir.

Davlatimiz madhiyasida butun xalq ruhiyati mavjud bo’lganligi uchun uni birinchi sinfdan boshlab butun yetti sinf davomidao’tiladigan «musiqa madaniyati»

darsliklariga kiritilgan.Kompozitor I.Akbarovning «Alla»asari ham aynan shu o'lmas navolar asosida yaratilgan bo'lib, uning ohangiga ham mumtoz asarlarimizning ruhi singdirilgan. Ona allasi – bu shunday asarki, uni o'rganish yosh tanlamaydi.

Farzandlarimiz ona allasini tinglar ekanlar ular ham o'z onalarining allasiga qo'shilishib kuylashadi. Demak, alla qo'shig'ini kuylash beshikdan boshlanadi. Go'dak qizcha ham o'zining yaxshi ko'rgan qo'g'irchog'iga alla aytadi. Yoshi ulg'aya borgan qizlarimiz o'z ukalariga alla aytadilar. So'ng bu allalarni ular o'z farzandlariga aytadilar. Sungra bu qo'shiqni ular buvi bo'lib ham kuylaydilar. Allalar yoshu – qariga birday aziz qo'shiqdir.

## 1.2. Mahalliy uslublarining uziga xos xususiyatlari.

Musiqa o’z tabiatiga ko’ra, insonlar hayotini, ularning voqiylikka bo’lgan munosabatini va turli ichki kechinmalarni xilma – xil tovush buyoqlari orqali badiy obrazlar vositasida yorqin tasvirlaydi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta’sir eta olish orqali ularning ma’naviy – ahloqiy dunyosini takomillashtiradi. Olijanob fazilatlarni kamol toptirishda vosita bo’lib xizmat qiladi. Xalqimizni bebaho ma’naviy mulki bo’lgan milliy kuy – qo’shiqlarimiz nafaqat so’z va ohang boyligi bilan, balki o’zbek xalqimizni o’ziga xos turmush tarzlarida, milliy cholg’u sozlari, milliy qadriyatlari, madaniy udumlari bilan diqqatga sazovardir. Xalq musiqasi turli mehnat sharoitida, tarixiy voqyealardan, xushchaqchaq o’yin - kulgi yoki musibatlarida yaratilib, uzoq yillar davomida sayqallanib, avloddan – avlodga, og’izdan – og’izga saqlanib keladi. Har bir milliy musiqaning asosi xalq musiqasidir. O’zbek xalq musiqasi xalq ijodining boshqa turlari singari, sodda ixcham va mukammal shakllarga va xilma-xil janrlarga boy.

Xalq qo’shiqlarii jamoa tomonidan yaratilgan asarlarni so’zma so’z yodlamasdan, balki unga ijodiy munosabatda bo’lib o’zidan nimadir qo’shib boyitib boradi. Unda milliy musiqa san’atimizning eng yorqin namunalarinafosati xalqning falsafiy tafakkurga boy teran fikr va g’oyalar o’z aksini topgan. Xalq musiqasi zaminida har bir millatning o’z boshida kechirgan tarixiy voqyealarini, uning erk va baxt, farovon hayot uchun kurashlarini yaqqol ko’rish mumkin xalqimiz yaratgan musiqa merosi ulkan ma’naviy boyligimiz u yosh avlodning axloqiy va nafosatli tarbiyasi uchun bebaho manba bo’lib hisoblanadi.

Chunki xalqimiz musiqaning nafis va orombaxsh turi bo’lgan «ona allasi» hali tili chiqmagan bola bishikda yotgan chog’ida idrok eta boshlaydi. Demak xalk musiqasi inson qalbiga eng yaqin bo’lgan san’at turidir. O’zbek xalq musiqasi o’zining badiiy ijrosi va ijrochilik  talabalariga qarab ikki turga: I keng xalq

ommasi, II kasbiy (professional) mashshoq honandalar hamda bastakorlik va kompozitorlik kabi zamonaviy musiqa ijodiyoti tarmoqlariga bo’linadi.

**Birinchisiga** xalq musiqasining ommaviy janrlar: lirik, marosim, mehnat, laparlar, allalar, termalar, epik va bolalar qo’shiqlari kiradi.

**Ikkinchisiga** ma’lum darajada musiqa ma’lumoti va ijrochilik malakasiga ega bo’lgan ustozona musiqiy janrlar kiradi.

Shuningdek, o’zbek xalq musiqasi xalqimizning turmush tarzi,urf-odatlari, bayramlari, mehnat turli marosimlari, musiqaiy janrlari, cholg’u sozlari, ijrochilik mahoratlari bilan to’rtta mahalliy uslubga bo’linadi va quyidagicha nomlanadi.

1. Surxandaryo Qashqadaryo mahalliy musiqa uslubi.
2. Buxoro Samarqand mahalliy musiqa uslubi.
3. Xorazm mahalliy musiqa uslubi.
4. Farg’ona Toshkent mahalliy musiqa uslubi.

Har bir mahalliy musiqiy uslubi o’z xususiyati va an’analariga ega. Bu uzoq yillar davomida shakllanib, xalqimizning ko’p asrlik musiqiy an’analarini, milliy qadriyatlarini o’rganishga va e’zozlashga chorlaydi. **Masalan:** Surxandaryo Qashqadaryo vohasi – dostonchilik, baxshi san’ati, do’mbira, sibiziq, g’atir pay, chanqobuz cholg’u sozlari bilan;

O’zbek xalqining dostonchilik san’ati haqida so’z borganda Surxondaryo Qashқqdaryo,Samarqand-Buxoro, Xorazm dostonchilik musiqiy uslublari haqida so’z yuritish joiz bo’ladi.Surxondaryo-Qashqadaryo dostonlari adabiy-musiqiy asar sifatida talqin qilinadi. Ular nasriy va nazmiy qismlarga bo’linib, o’zaro bir-biriga bog’langandir.Doston ijrochilarini baxshi, shoir, yuzboshi deb ataydilar. Dostonlar asosan do’mbira cholg’u jo’rligida bo’g’iқ ovozda kuylanadi. Bo’g’iq ovozni hosil qilish va ishlatish alohida

mashqlar natijasida amalga oshiriladi. Ushbu malakani oshirishda ustoz-shogird an’analariga rioya qilinadi. Natijada shogirdlar ushbu vohalarda mashhur bo’lgan «Alpomish»,«Avazxon», «Guro’g’li», «Kuntug’mish» dostonlarini yod oladilar va ko’rikdan o’tadilar.Baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini qo’shiq shaklida kuylaydilar.Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik sana’tida Shahrisabz va

Sherobod maktablari asosiy markaz sanaladi. Abdulla Nurali O’g’li va Islom Nazar O’g’li kabi baxshi shoirlar

Shahrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari Bo’lsa, Shernazar Beknazar o’g’li, Mardonqul Avliyoqul o’g’li, Umar Safar o’g’li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur ijrochilari hisoblanadilar.Dostonlarni ijro etish ham asosan mavsumiy bo’lib, kech kuzda dehqonlar hosillarini yig’ishtirib bo’lganlaridan so’ng boshlanib, erta bahorgacha davom etadi. Dostonchi baxshilar xonadonlarda uyushtirilgan dostonchilik kechalariga taklif qilinadilar va mahalla, qo’ni-qo’shni yig’ilishib, dostonlar tinglashadi. Bu azaldan odat tusini olgan bo’lib, baxshilarni oilaviy bayramlarga, to’y-tomoshalarga, hosil bayramlariga ham taklif etganlar.  Dostonchi baxshi o’z dostonlarini qisqacha aytim yo’li bilan ta’riflab beradi va eshituvchilarning hohishiga ko’ra bir dostonni boshlaydi. Dostonchi baxshilar doston ijrolaridan tashqari bag’ishlov ijrolariga ham juda usta bo’lib, biron yaxshi kunga, marosimga, mashhur odamlarning ismlariga monand bag’ishlovlarni nasriy va she’riy yo’llarda ham ijro etadilar. Bu ijro baxshilardan o’ta zukkolikni talab qiladi.Hozirgi davr dostonchilik ijrochiligi Shoberdi baxshi Boltaev maktabi yetakchilik qilmoқda. Surxondaryo-Qashқadaryo musiqasida dostonchilik san’atidan tashqari keng ommalashgan mehnat qo’shiқlari alohida ahamiyat kasb etadi. Qo’sh, o’rim, yorg’inchoқ qo’shiqlari dehqonchilik bilan bog’lansa, «xo’sh – o’ўsh», «Churey», «Turey-turey» qo’shiқlari chorvachi-lik bilan bog’liqdir. Charx, o’rmak, kashta, bo’zchi qo’shiqlari esa hunarmandlar mehnati qo’shiqlari sanaladi. Buxoro-Samaqқand musiqa uslubiga doir dostonchilik maktablari asosan viloyat tumanlarida qaror topgan bo’lib, ular, «Bulung’ur dostonchilik maktabi», «Narpay dostonchilik maktabi» kabi ataladi. Shulardan Bulung’ur va Qo’rg’on dostonchilik maktablari mashhurroqdir. Bulung’ur dostonchilik maktabida «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Aҳmad», «Rustamxon», «Gўrўғlini tuғilishi» kabi қaҳramonlik dostonlari yetakchi ўrin tutadi. Jўrovoz soz sifatida dombra sozi қўshiladi. Amin baxshi, CHinni SHoir, Tavbuzar shoir, Қurbonbek shoir, Yўldoshbubul, Yўldoshshoir, Қўldash Suyar kabi baxshilar bu maktabning

ўtmishidagi (XIX asr) yirik namoyandalaridir. Fozil Yўldosh ўғli (1872- 1955) bu maktabning sўngi yirik vakillaridan biri edi. Қўrғon dostonchilik maktabida «Alpomish» dostoni ijro etilgan bo’lsa-da, biroq unda ishqiy-romantik dostonlarga jumladan, «Gumor pari», «Qunduz» bilan «Yulduz», «Oysuluv», «Kuntug’mish» singari dostonlarga ehtibor beriladi. Qo’rғon dostonchilik maktabining o’tmishdagi yirik vakillari қatori Yodgor, Laras, Mulla-Tosh, Mulla Xolmurod, Jumanbulbul kabi baxshilarni aytish kerak. Ergash Jumanbulbul o’g’li (1868-1937) va Po’lkan shoirlar (1874-1941) bu maktabning so’ngi yirik namoyandalari edi.Xorazm dostonchilik maktabi o’z anhanalariga ega bo’lib, boshqa mahalliy dostonchilik maktablardan farqli jihatlarga ega. Bu farqlar asosan қuydagilardan iborat. A) Xorazm dostonlari «Bo’g’iq ovozda» emas, balki «Ochiq ovoz» uslubida kuylash xususiyatlari bilan ohanglanadi.B) Ko’pincha mahalliy dostonchilik maktablarida do’mbra sozi jo’rnavoz siyratida qo’llanilsa, Xorazm dostonchiligida dutor, tor so’zlaridan foydalaniladi. Shuningdek, doston aytishda ijrochilik ansambli qatnashadi. Bunda ustoz baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlar esa g’ijjak, bo’lamon va ba’zan doira sozlarida jo’r bўlib turishadi.V) Xorazm dostonlari repertuarini «Oshiq g’arib va Shohsanam», «Go’ro’g’li»,«Kuntug’mish», «Bozirgon», «Oshiқ Oydin» kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq, Xorazm dostonchiligida qahramonlik dostoniga mansub «Alpomish» namunasi uchramaydi. Xorazm dostonchiligining yirik vakillari Ahmad baxshi, Bola baxshi, Ro’zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish joizdir. O’tmishda doston aytuvchilarni go’yanda, ular ijro qiladigan yo’llarini noma deb yuritilgan.Ergash Jumanbulbulning quyidagi shehrida esa Nurota maktabi uslubiga oid dostonlar nomalari sanab o’tiladi:

Yigirma xil ohang bilan so’z aytib,
Yigirma xil noma do’mbra chertib
Hoh katta, hoh kichik eshitsa,
har qanday odamni balqitib, eritib

Sherobod maktabining mashhur baxshisi Umar shoir Safar o’ғli ijodiga mansub she’rda esa Surxondaryo-Qashқadaryo dostonchiligidagi nomalar soni keltiriladi.

Ey do’mbiram kajakdor,
O’ttiz ikki nomang bor,
Hammasi ham maftunkor,
Birin chalsam biri bor...

deb, 32 noma borligi ta’riflanadi. Keyinchalik 60 ga yetkazilgan. Ushbu mahlumotlardan ko’rinadiki, doston qo’shiқlari qadimdan nomalar deb yuritilgan. Xorazm nomalari yirik hajm, kuy yo’nalishi, parda, lad va avjlari o’ziga xos yorqin uslubi bilan ajralib turadi.Maxsus til irodasi, musiqiy nuqtai nazardan Xorazmda ikkita yirik dostonchilik uslubi mavjud. Ular baxshilarning iboralari bilan shirvoniy va Eroniy yoki Janubiy yoki shimoliy xorazm uslublari deb yuritiladi. shirvoniy uslub o’z ichiga Hazorasp, Bog’ot, Yangiari, Qo’shko’pir, Urganch, Xonqa, Shovot, Toshҳovuz viloyatining Ilonli, Ko’hna Urganch, Qoraqolpog’istonning ,To’rtko’l, Ellikqal’a tumanlarini qamrab oladi.Uning markazini shartli ravishda Xiva shahri deb belgilash mumkin. Mazkur uslub nomalari 72 ta bo’lib, ular doston she’rlarining vazni, bo’g’inlariga ijrochi baxshini ovoz imkoniyatlariga қarab ўқiladi.

Eroniy uslub Gurlan tumanining bir qismini Qoraqol’og’istonning Amudaryo,xo’jayli Toshhovuz viloyatining shimoliy tumanlarini o’z ichiga қamrab oladi. Uning markazini shartli ravishda Mang’it shahri deb belgilash mumkin.Ustoz baxshilarning fikricha musiqiy mohiyatga ko’ra shirvoniy uslub 72, eroniy uslub 32, Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarining Sherobod maktabi 64 nomadan iborat.Xulosa qilib aytganda doston ijrochiligi o’zbek musiқa sanhatining ajralmas

Buxoro Samarqand voxasi – maqom, shashmaqom mavrigi; erkaklar davra jo’rligi 2,3 raqs bilan ijro etadi., qarsak, sozandachilik san’ati (ayollar ijodi), qayroqtosh, zang kabi cholg’u sozlari bilan;

Xorazm vohasi – suvoralari, xalq qo’shiq va la’arlari, o’yin – raqs kuylari, xalfachilik, dostonchilik va maqom, garmon bo’laman cholg’u san’ati bilan;

Toshkent – Farg’ona vohasi kata ashullar, bolalar folklori, terma, la’ar, maqom, dostonchilik, yalla, hamda bastakorlik an’analari tanbur, sato, qo’shnay cholg’u sozlarini o’ziga xosligi bilan bir – biridan ajralib turadi.

Xalq mauiqasining  eng muhim turi xalq ashulalaridir. Ashula o’zbek vokal musiqasining eng rivojlangan janri, unda ichki kechinmalari, falsafiy fikrlar, eng nozik iuyg’ular ifodalanadi. Ashullada musiqa ijrosidagi nola, qochirma kabi sayqallar ko’’ ishlatiladi. Ashullaning yana bir turi – katta ashula.

**Katta ashula**  jo’rsiz ijro etiladi, ijrochi etiladi, ijrochi qulida katta yoki li’o’cha bo’ladi. ‘atnis tovushni ma’lum darajada baland chiqaradi,tovushni bir tomonga yo’naltirish va usulni yo’qotmay chertib turish uchun xizmat qiladi. katta ashulani, odatda ikki yoki uch – to’rt ashulachi tik turib ijro etishadi. Har bir ashulachi galma – galdan kirish, avj qismlarini aytishadi, so’ng barovar tugatishadi. Bunday ashulalarga «bir kelsin», «ko’’ erdi», «Adashganman», «Shafoat» kabi ashulalar, katta ashulaga misol bo’la oladi. Ashula atamasi birinchi marta XI asrda yozilgan ilmiy adabiyotlarning, bizgacha yetib kelgan Maxmud Qashg’ariyning «Devoni lug’ati turk» asarida «homug’» shaklida berilgan bo’lib, bu so’zning ma’nosi surud ya’ni kuylash ma’nosini bidiradi. Qushiqni ijro etuvchilar qo’shiqchi ya’ni «guyanus» «ashulakash»,  «la’archi» «ulanchi»  deb nomlangan. Ashulalar ko’’chilik joylarda turlicha sozsiz – (qaliq, qayroq, qarsak, likobcha ba’zan dutor, doira, do’mbira) jurligida kuylangan Alla – qo’shiqlarida zaxmatkash, mushti’ar, ezilgan, mazlum sharq onasi gavdalanadi. Alla naqoratlarida beshikda yotgan bolaning nomi qo’shib aytiladi, qo’shiq o’zi cholg’usiz ijro etiladi. Ona o’z farzandini kelajakda baxtli saodatli, sog’lom bo’lishini orzu qiladi. Alla mayin, orombaxsh, lirik oxangda aytiladi. Alla bu shunchaki bola uxlatish degan ga’ emas. Ibn Sinoning so’zlariga qaraganda alla eshitgan bola sog’lom, odobli bo’lib o’sadi, qobiliyati yaxshi rivojlanadi. Ona allalarida o’z jigarbandiga nisbatan undan kutgan orzu umidlarini ifodalaydi, zarb usuli bir maromda tebranuvchi bo’ladi. Unda beshikni tebratishdagi holat aks etadi.

**Lapar** – sho’h va raqsona kuy usulida bo’lib odatda yakkaxon, ikki, ba’zan ko’’chilik tomonidan aytishuv tarzida ijro etiladi. Ba’zan zavqqa to’lgan

tinglovchilar cha'ak cholib jo'r bo'ladilar. Bunga xalqimizning «OMON yor», «Ililla yor», «qora soch» kabi mashhur asarlardir. La'arlar xajviy va hazil mutoyiba mazmunida kuylanadi.bunga misol qilib mashhur, taniqli la'archilarimiz Tamara xonim, Tumiod Otaboyevani keltirishimiz mumkin.

**Yalla** – bu janr ham quvnoq, raqsona oxangda bo'lib, qo'shiq va raqs bilan ijro etiladigan janrdir. Yalla odatda ko''chilik bo'lib vokla ansambli va raqs bilan ijro etiladi. Ijrochilar raqs va vokal ansambl guruhiga bo'linib, qarsak chalib o'yinga tushadilar. Bu janrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri samimiy sevgi, mehr – muxabbat visol orzusi armonlarini zavqu – shavq bilan kuylanadi. Yallalarda nozli istig'loli, qadar – qimmatini biladigan vafodor yor obrazi gavdalanadi. M: «Namangan olmasi», «yali - yali», «Bo'g'macha bilagim», «Fabrika», «olmacha anor» kabi yallalar misol bo'la oladi.

**Terma qo'shiqlar** – mazmunan ko''roq 'andu nasihat, ahloq – odob, inson'arvarlik haqida kuylanadi. Ular dia'azon jihatdan uncha katta bo'lmagan kuy va ixcham shaklda barmoq vazmindagi she'rlarda kuylanadi. Bunday termalarni baxshilar do'mbra jo'rligida kuylaydilar. M: Chori baxshi ijro etgan «Nasihat» termasini keltirish mumkin.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari – o'zbek xalqining uzoq o'tmishi davomida turli marosim va urf odatlari shakllangan bo'lib ularda xalqimizni dunyoqarashi hayotiy voqyelikka munosabati, orzu – istaklari va ma'naviy marosimlarini aksariyati yil fasllari va mehnat mavsumlariga bog'liq holda o'tkaziladi. Qadimdan to'rt faslga oid quyidagi marosimlar o'tkazilgan.

1. Qish faslida – yas – yusu', ramazon,
2. Bahor faslida – «Navro'z», shahmoylar, sust xotin, lola sayli
3. Yoz faslida – choy momo,
4. Kuz fasli – oblo baraka, shamol chaqirish.

Mavsumiy marosim qo'shiqlarini eng ko'' namunalari go'zal bahor fasli va «Navro'z bayrami»ga bog'liq bo'lib ijod etilgan. E'tiborli tomoni shundaki, bu toifa namunalar asosan bolalar ham kattalar singari aksariyat marosimlarda

qatnashib kelganlar. M: «Laylak keldi», «Boychechak», «Qaldirg'och», «Oq terakmi, ko'k terak», «Sust xotin».

Diniy navolar – o'zbek xalqi islom dinini qabul etgan davrdan boshlab, muqaddas qur'oni karim sura va oyatlarini o'qish ahloqiy tarbiya berish maqsadida qiroat bilan o'qish orqali yuzaga kelgan.

Xalq musiqasi ijodini o'rganish uchun boshlang'ich sinflardan boshlash maqsadga muvofiqdir.

a) Dastlab o'quvchilarni kichik hajmdagi xalq kuylaridan, milliy cholg'u sozlaridan va bolalar xalq qo'shiqlaridan boshlash kerak.

b) O'zbek xalq kuylarini idrok etish malakalarini shakllantirish uchun milliy cholg'u sozida jonli ijro, cholg'u sozlarni rasmi, ijrochilarni rasmi, kuy mazmuniga mos ko'rgazmasi rasmlar va asar mazmuniga mos ko'rgazma bo'lishi lozim.

v) O'quvchilar kuyni to'g'ri idrok etish uchun asar haqida qisqa mazmunli, lo'nda xikoya qilish, so'ngra bolalar bilan taxlil qilish lozim.

g) Asarning mazmuniga mos musiqiy ritmik harakatlar, tarbiyaviy – ta'limiy suhbat metodlarini qo'llash, asarga nisbatan ijodiy munosabatni o'stirish lozim.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, har bir sinf uchun musiqiy materiallarni tarbiyaviy – ahloqiy, ma'naviy maqsadlarini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq musiqasi, kuy – qo'shiqlari o'quvchilarda nafosatli zavq uyg'otish bilan birga ularni ahloqiy tarbiyasiga va insoniy fazilatlarini yanada chuqurroq xis etishni o'rgatadi.Har bir xalqning o'ziga xos musiqasi bo'lib, unda miliy musiqa san'atining eng yorqin namunalari o'z aksini to'gan bo'ladi. Milliy tarbiya musiqiy idrokning bitmas – tuganmas manbaidir, chunki u turlicha, bevosita inson yuragi va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir.Mustaqil O'zbekistonda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy ahloqiy tomondan tarbiyalash va kamol to'tirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Milliy musiqa inson yuragi va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni qiziqtiradigan, o'ziga jalb etadigan, zavqlantiradigan qo'shiqlar o'rgatish musiqiy tarbiyaning muhim vazifalaridan biridir. Har bir xalq musiqasi milliy an'analar,

urfodatlar, odob – ahloq qoidalari, tarixiy voqyealarni aks ettiradi. Umumiy ta’lim maktablarida xalq musiqa ijodini o’rganishni ahamiyati katta. Chunki xalq musiqa ijodi ‘rofessional (kasbiy) musiqaning asosidir. Musiqa madaniyati darslarida boshlang’ich sinflardan boshlab, yettinchi sinfgacha DTS dasturi asosida o’zbek xalq musiqa ijodi o’rgatiladi. DTS dasturiga kiritilgan kuy va qo’shiqlar o’quvchilar yoshi qiziqishiga mosdir. O’zbek xalq kuy va qo’shiqlari, cholg’u sozlari, bastakorlarni ijodi haqidagi bilimlarni yanada chuqurroq o’rganishga yordam beradi. Musiqiy ta’limni milliy asosini tarkib to’tirishda forte’iano bilan birgalikda xalq cholg’u asboblaridan foydalanish muhim rol o’ynaydi. IV sinfdan boshlab o’quvchilar musiqa madaniyati darslarida xalq musiqa ijodini asosiy xususiyatlarini o’rgana boshlaydilar. IV sinfdan o’quvchilari hayotiy tajribalarga ko’ra fanlarga qiziquvchan, o’zlari sevgan mashg’ulotlari bilan to’garaklarga qatnaydigan, dunyoqarashlaritarkib to’ayotgan davri bo’ladi. Shunga muvofiq o’rganilayotgan asari ham janr, xajm va badiiy jihatdan ularning yoshga, ovoz dia’azoniga mos bo’lishi kerak. Har bir o’qituvch dars mazmunini milliy musiqamizdan unumli foydalanib, musiqa madaniyati darslarini mazmunli tashkil etishi lozim. Bunda ayniqsa vokal – xor mashqlari sifatida xalq kuy va qo’shiqlaridan ‘archalar kuylash va shu vosita bilan milliy musiqa ohanglarini bola hissiyotiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

O’zbek xalq qo’shiqlari oddiy kichik xajimdagi qo’shiqlardan boshlab asta – sekin murakkablashib boradi. Bunga misol qilib «Chamanda gul», «Boychechakk», «Lola», «Choriy chambar», «Yomg’ir yog’aloq», «Yalama yorim» kabi qo’shiqlar misol bo’la oladi.

Bu qo’shiqlar bolalarda ma’naviy ‘oklik, tabiatga muhabbat, kattalarga hurmat, odob – ahloq tarbiyasini shakllantiradi. Yana bunga misol qilib «yaxshi bola» N.Norxo’jayev «Dono bola», «Biz askarmiz», «Oy vatanim» Sh.Yormatov «Gul tutaman onajon» Ye.Shvars «Ikki qo’ymang o’qituvchim» Sh. Yormatov musiqasi kabi asarlar o’quvchilarni axloqiy – estetik tomondan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa tinglash uchun asarlar ham oddiy kichik hajmdagi asarlardan boshlab, keyin asta – sekin murakkablashib boradi. M: «Do'loncha», «Dutor bayoti», «Andijon 'olkasi», «Lola raqsi», «Qari navo» «Farg'onacha», «Sharob – I», «Navro'zi ajam», «Munojat» shular jumlasidandir.

Mazmunli quvnoq musiqalarni o'quvchilar zavq bilan tinlab, musiqa va raqslarni berilib ijro etadilar, bu ularda o'zbek xalq kuy qo'shiqlariga qiziqishni uyg'otadi, mehrini qozonadi, axloqiy tarbiyani. Shakllantirish uchun zamin yaratadi. Shuning uchun ham musiqa bolalarni ma'naviy, axloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirish uchun ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar tinglagan asarlarini idrok etishlari, o'z fikrlari, taassurotlarini bildirishlari uchun ular bilan suhbat (savol - javob) asar taxlili o'tkaziladi. So'ngra asar yana qayta tinglanadi. Iloji bo'lsa musiqa o'qituvchisi oldin asarni o'zi milliy cholg'u sozida (doira, rubob, dutor)da, so'ngra magnit tasmasida (yoki aksi) tinglashni amalga oshrsa, o'quvchilar musiqiy asarni yanada chuqurroq idrok etishlari, qadrlashlariga erishiladi. Tinglangan musiqiy asar turli musiqiy harakatlar yordamida o'quvchilar bajarsalar, yoki imitasiya qilib dutor, rubob, doira, g'ijjakda ijro etishni ko'rsatsalar, yoki ushbu kuy mazmuniga mos xikoya tuzib, rasmlar chizsalar asarning o'quvchilarga ta'siri, xotiralarida uzoq vaqt saqlanib, musiqadan zavq va madaniy ozuqa olishlari mumkin bo'ladi. Umumiy ta'lim maktablarini har bir sinfida o'rgatish uchun tavsiya etilgan qo'shiq, ashula, kuy asarlarini 'uxta o'ylab chiqib, o'quvchilarga yetkazish lozim. Bolalarning o'ziga qo'shiq kuylatish, musiqani idrok ettirish, ularda musiqaga moyillikni tarkib to'ishini amaliy va ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar har bir musiqani diqqat bilan kuylash va tinglash ularda musiqiy tovushlar vositasida, obrazlarni yorqin tasavvur eti shva musiqaga to'g'ri baho berishga o'rgatadi. Musiqa madaniyati darslarida ijro etiladigan asarlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmog'i kerak. Bolalarning yoshiga mos tinglanadigan yoki kuylanadigan asar, ularning ichki dunyosiga yaqin bo'lishi, axloqiy odobiga ta'sir etishi kerak. Bolalar quvnoq va qayg'uli musiqali ham, tantanavor ko'tarinki rux, hamda hajviy musiqalarni diqqat – e'tibor bilan

tinglashlari lozim. Har o'quv yilida tinglanadigan va kuylanadigan musiqiy asarlar, shakl va mazmun jihatdan murakkablashib boradi. Hozirgi musiqa madaniyatini xilma – xil shakllari va axborot vositalari, tarqatma materiallar va noa'naviy uslubdagi darslar, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar bilan qurollangan bo'lishi lozim.O'quvchilarni katta musiqa san'ati dunyosiga olib, kirish, ularni o'zbek xalq musiqasini janrlariga juda boyligi, mazmunli, ma'noli ekanligi, musiqadan zavq olish bilan birga axloqiy nafosat tarbiyasini, madaniyatni shaklantirish bugungi kunda asosiy vazifalardan biri ekanligini anglashimiz lozim.

Hozirgi biz yashayotgan davr tezkor ilmiy – texnika inqilobi asri xalq ijodida ham o'z aksini to'moqda. Mamlakatimiz ijtimoiy – siyosiy, madaniy va xo'jalik hayotida yuz berayotgan katta o'zgarishlar yangi insonni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berishni talab qiladi, san'at, adabiyot, shu jumladan xalq ijodiy zakovati bo'lgan musiqa san'ati va fani oldiga ham g'oyat muhim vazifalar qo'ydi.

## 2- bob. "Musiqa madaniyat darslarida o'zbek xalq musiqasini o'rganish yullari imkoniyatlari".

### 2.1. Surxandaryo-Qashqadaryo mahalliy uslublarini uziga xos xususiyatlari va ularni musiqa darslariga joriy etish yo'llari

Har bir maxalliy musiqiy uslub o'z xususiyati va an'analarga ega. Bu an'analar esa, uzoq davrlar mobaynida shakllangan bo'lib, xar bir xalqning turmush tarzi, mehnat mashg'ulotlari, marosimlari, bayramlari, urf – odatlari bilan o'z xususiyatlariga ega.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubida mehnat jarayoni bilan bog'liq qo'shiqlar salmoqli o'rinda turadi. Bu turdagi qo'shiqlar aholining qadimgi davrdan buyon saqlanib kelinayotgan chorvachilik va dehqonchilik kasblari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.Chorvachilikka doir qo'shiqlar (aytimlar) assosan "sog'im qo'shiqlari"dan iborat bo'lib. Ular qora mol,biya, tuya, echki, qo'y kabi

hayvonlarni sog'ish vaqtida kuylangan. Bunda "xo'sh-xo'sh" aytimi qora molni sog'ishda "Turey-turey" va "churey-churey"lar jonivorlarni tinchlantirish, erkalash va ulardan iydirib ko'' sut sog'ib olish maqsadlarida qo'llaniladi. Dehqonchilik qo'shiqlari shu kasb bilan bog'liq jarayonda yuzaga kelgan qo'shiqlardan iborat bo'lib, "Qo'sh haydash", "Xo'' hayda", "Mayda-mayda", "Yozi" kabi nomlar bilan atalib kelinadi. Qo'sh haydash qo'shigi yer haydash 'aytida ho'kizga qo'shilgan omochni boshqarib borayotgan dehqon tomonidan ayitilsa "Yozi" aytimi hoslini o'rish 'aytida "Xo'' hayda" va "Mayda-mayda"lar va bug'doy va ar'a 'oyalarini xirmonda ot yoki ho'kizlar yordamida yanchish vaqtida xirgoyi qilinadi.Dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarning boshlanishida "Shox moylar" marosimi o'tkazilgan. Bu marosimga boshlanishi erta bahor fasli, ya'ni yerni dastlabki  haydash vaqtiga to'g'ri keladi. Marosimda qishloq ahli yig'ilib, ho'kizlarning shoxlarini Navro'z bayramiga atab 'ishirilgan bo'g'irsoq yog'i bilan moylashgan hamda qishloq keksalaridan biri bobo dehqon bo'lib dalaga birinchi qo'sh solgan. Ana shu qavtda msrosimda hozir bo'lgan "Shox moylar" qo'shig'ini kuylashgan.O'zbek mehnat qo'shiqlarini quyidagicha guruhlarga ajratib o'rganish lozim.

Bular:

1. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
2. Chorvachilik bilan aloqador qo'shiqlar.
3. Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ovchilik, savdo-sotiq kabi mehnat turlari bilan bog'liq
qo'shiqlar hozir saqlanib qolmagan. Shuning uchun ham aytilgan ikki mehnat turi bilan bog'liq qo'shiqlarga tasnifdan o'rin berilmadi. O'rta Osiyo xalqlari qadim-qadim zamonlardan dehqonchilik bilan shug'ullanib keladi. Binobarin, mehnatning bu turi bilan bog'liq qo'shiqlar rang-barang bo'lib, ulardan bizga qadar «Qo'sh qo'shiqlari», «O'rim qo'shiqlari», «Xirmon qo'shiqlari» (Xo'' maydalar) kabi janrlargina yetib kelgan. Bevosita dehqonning mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lmasa ham, biroq

uning mehnat samarasi bo‘lgan narsalar bilan aloqador qo‘shiqlar ham mehnat qo‘shiqlari doirasida olib qaraladi. Masalan, g‘allani yorg‘ichoq yordamida un qilish jarayo’ida ijro etiluvchi qo‘shiqlar «yorg‘ichoq qo‘shiqlari» atamasi bilan dehqonchilik qo‘shiqla-ri doirasida olib qaraladi.Qo‘sh qo‘shiqlari. Dehqon mehnati erta bahorda yer haydashdan boshlanadi. Yer haydash esa og‘ir jismoniy mehnat bo‘lib, bunday tinkani quritadigan mehnat ‘aytida dehqon qo‘shiq kuylab, o‘zini ovutgan va shu orqali mehnatning og‘ir azobini unutgan.Qo‘sh qo‘shiqlarida ish hayvonlariga murojaat, qo‘sh tortayotgan hayvonlar tilidan og‘ir mehnatdan qilingan shikoyat motivlari yetakchilik qiladi. Chunki og‘ir mehnatdan, tengsizlikdan shikoyatning hayvonlar tilidan bayon etilishi dehqon dilidagi dard-alamlarni yorqinroq ifodalashning qulay usuli edi:

Shoxlarim bor gaz-gaz quloch,
Ustida o‘ynar qaldirg‘och.
Hayday desam qornim och,
Men qo‘shga qanday yarayin.

Ho‘kiz tilidan aytilgan bu shikoyat hosil yetishtirib, o‘zi yarim och, yarim to‘q hayot kechiruvchi dehqon hayotining real kartinasini chizishga xizmat qiladi. Demak, qo‘shiqdagi hayvonning ochlik va og‘ir mehnatdan qilgan shikoyati dehqonning og‘ir, mashaqqatli hayotini bayon qilishning bir vositasidir.

Bo‘ynimda bor bo‘yinturuq,
Omochlari sharaq-shuruq.
Oqshom borsam, oxur quruq,
Men qo‘shga qanday yarayin.

Qo‘sh qo‘shiqlarining ko‘‘gina namunalarida lirik bayon bevosita dehqon tilidan olib boriladi. Shuning uchun bu xildagi qo‘sh qo‘shiqlarida tengsizlik, nohaqlik hukmron

bo‘lgan jamiyatda oila qurish, tirikchilik qilishning naqadar og‘ir ekanliga aytiladi:

O‘roq o‘rmoq olmoq-solmoq,
Qo‘sh haydamoq bormoq-kelmoq.
Hammasidan qiyin ekan,
Ey ho‘kizim, ro‘zg‘or qurmoq.

Darhaqiqat, qo‘sh haydash, o‘roq o‘rish qay darajada og‘ir bo‘lmasin, agar ro‘zg‘or but, qorin to‘q bo‘lsa, inson ularning barchasiga chiday oladi. Aks holda, hech narsa kishiga tatimaydi. O‘z mehnatining samarasidan bahra to’magan dehqonning ho‘kiziga qarata «ro‘zg‘or qurmoq qiyin ekan» deyishida ana shu hayotdan nolish, shikoyat yashirinib yotibdi.Nochor hayotdan ezilgan dehqon o‘z ho‘kiziga murojaat qilar ekan, har ikkisining mehnat qilishga majburligi, busiz ularga kun kechirish mumkin emasligini aytib zorlanadi va ho‘kizini qo‘sh tortishga da’vat etadi:

Ho‘kizginam, bo‘yniginang ezildi,
Ko‘zginangdan yoshlar qator tizildi.
Bo‘yinturuq bilan omoch tortmasang,
Seni bilan menga go‘rlar qazildi.

Xullas, qo‘sh qo‘shiqlari har xil bo‘lib, ular yolg‘iz qo‘shchi tomonvdai bevosita qo‘sh haydash ‘aytida goh baland ovoz bilan, goh xirgoyi qilib ijro etilgan. Qo‘sh qo‘shiqlarining asosiy vazifasi og‘ir mehnat ‘aytida dehqonning ko‘ngil dardlarini aytib, o‘zini ovutish, o‘zi va ish hayvoniga dalda berish, ruhini ko‘tarishdan iborat.Sotsialistik tuzum qishloq xo‘jaligini tubdan o‘zgartirib yubordi; dehqon og‘ir qo‘l mehnatidan ozod bo‘ldi, yer haydash traktorlar yordamida bajarila boshlandi. Dehqon mehnatidan qo‘shning chiqib ketishi bevosita qo‘sh qo‘shiqlarining yaratilishi va jonli yashashini ‘assivlashtirdi. Hozir esa qo‘sh qo‘shiqlari

deyarli unutilib bormoqda.O‘rim qo‘shiqlari. Ilgari ‘aytda yetilgan g‘alla qo‘lda o‘rib olingan. Bunday og‘ir va ayni ‘aytda maroqli xmehnat ‘aytida o‘roqchilar o‘zlarini ovutish uchun maxsus qo‘shiqlar to‘qib kuylaganlar. Ana shunday qo‘shiqlar shartli ravishda o‘rim qo‘shiqlari deb yuritiladi.O‘rim qo‘shiqlar yakka shaxs yoki ko‘‘chilik tomonidan ijro etilgan. Ularda bahorning injiq, yozning shafqatsiz issiq kezlarida qilingan mehnatning samara
berganligidan quvongan dehqonning ko‘tarinki ruhi, yetilgan hosilni tezroq chig‘ib olishga bo‘lgan kuchli ishtiyoq tarannum etiladi:

O‘rog‘im olmos, O‘rishdan qolmas.
Sira ham tolmas, O‘rmasam bo‘lmas.

Don to‘lgan boshoqlarga murojaatdan iborat ayrim to‘rtliklar o‘rim qo‘shiqlarida naqarot o‘rnida kuylanadi. Bunday naqarotlarda dehqonning mehnat samarasini ko‘rishga oshiqish motivlari yetakchilik qiladi:

G‘ujmoqi bug‘doy,
Donginang to‘qay.
To‘‘ bo‘l, o‘raylik,
Xo‘‘da ko‘raylik.

Mehnat qo‘shiqlarining ayrim namunalarida mehnat qurollariga, dehqonning o‘z qadoq qo‘liga murojaat qilishi, o‘roqning o‘tkirligidan, qo‘lining charchoq bilmasligidan mamnunlik holatlari kuylanadi. Bunday qo‘shiqlar esa tinim bilmay mehnat qilayotgan o‘roqchilarning kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadi:

O‘rog‘im chaqqon,
Sen menga yoqqan.
Qo‘lginam chaqqon
Mehnatda boqqan.

Ayrim hollarda o‘roqchilar o‘rtasida dehqonchilik ekinlari tilidan dialog tarzida aytiluvchi qo‘shiqlar ham kuylangan. Ularda har bir ekin o‘zining afzallik tomonlarini ulug‘laydi:

Ar’a tar zamon-zamon,
Bug‘doy aytar olashaman,
Suvsizlikdan bo‘ldim somon.
To‘ylarga ko‘‘ yarashaman.
Men bo‘lmasam, non qaydadir,
O‘qlovlarga yovoshaman,
To‘lmadingmi, qora daryo?
To‘lmadingmi, qora daryo?..
Sholg‘om aytar shod bo‘lmadim,
Arzin aytib yig‘ladi mosh,
Bu g‘amdai ozod bo‘lmadim,
Hech kimsa yo‘q menga yo‘ldosh.
Suv ichib obod bo‘lmadim,
Kunda qozonda issiq osh,
Toshmadingmi, qora daryo?
Toshmadingmi, qora daryo?

Aslida bu qo‘shiqning o‘rim bilan aloqasi yo‘q. Lekin u o‘roqchilarning charchog‘ini tarqatish va shu orqali ularning kayfiyatini ko‘tarib, g‘ayrat bilan mehnat qilishga undash maqsadida aytilgan.Ma’lumki, o‘tmishda g‘alla o‘rimi hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan. Hashar ‘aytida o‘rimchilarni zeriktirib qo‘ymaslik, ishtiyoq bilan mehnatga chorlash maqsadida so‘zga chechan kishilar turli lirik qo‘shiqlardan yoki qiziqarli dostonlardan ‘archalar kuylab, o‘roqchilarga dalda berganlar. Qashqadaryo, Surxondaryo va Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbeklar o‘rim ‘aytida «Yozi bilan Zebo» dostonidan ‘archalar kuylaganlar. Chunki Yozi kal bilan Zeboning ishqiy sarguzashtlari o‘roqchilarga, zavq bag‘ishlagan:

Zebijon erta ketadi soy bilan,
Qo‘lida chinni ‘iyola moy bilan.
Chinnini nodonga bermang, sindirar,
Yaxshini yomonga bermang, kuydirar.

Hozirgi ‘aytda g‘alla kombaynlar vositasida o‘rilganligi; sababli o‘rim qo‘shiqlarini ijro etishga, ularning yaratilishi va jonli ijrosiga hojat

qolmadi. Natijada, ular asta-sekin unutilib bormoqda.Yanchiq qo'shiqlari. Urilgan donni yanchish uchun xirmon qili-nadi. Buning uchun doni ajratilmagan bug'doy doira shaklida yoyib qo'yiladi. Doira markazida yo'g'on ustun o'rnatiladi. Bir necha ho'kiz, ba'zan ot yoki eshak bir-biriga yonma-yon matab qo'yiladi. Ustun yonidagi hayvon esa ustunga bog'lanadi. Bir-birlariga matalib qo'yilgan hayvonlar esa galagov deyiladi. Galagovga xirmondagi 'oxolni tekislab borish uchun tut, qayrag'och kabi qattiq daraxtlarntshg shoxidan to'qilgan chakar, bog'lab qo'yiladi.Dehqon galagov haydab kun bo'yi xirmonda don yanchar ekan, baland ovoz bilan yoki xirgoyi qilib qo'shiqlar aytadi. Ana shu qo'shiqlar xalq o'rtasida «Ho'' qo'shiqlari», «Maydalar», «Ho'' maydalar» yoki «Maydagul» deb yuritiladi.Mayda qo'shiqlari mungli ohangda cho'zib aytiladi. Ularda, dehqonning yoz bo'yi qilgan og'ir mehnati natijasida yetishtirilgan hosilni tezroq yanchib olish istagi bayon etiladi:

Ho'' hayda-yo, ho'' hayda, maydayo-mayda,

Qalqon qulog'im hayda, maydaye-mayda.
Temir tuyog'im hayda, maydayo-mayda,
Xirmonni qilgin mayda, maydayo-mayda.
Ostingda bosgan donni, maydayo-mayda,
Oyog'ing qilsin mayda, maydayo-mayda.
Sen 'o'stidan judo qil, maydayo-mayda,
Somoni senga foyda, maydayo-mayda.

Demak, donni 'oxoldan ayirish dehqon uchun ham, hayvon uchun ham foydali, chunki don mayda qilingandan keyingina ular qishlovga ega bo'ladilar. Ko''chilik mayda qo'shiqlarida don yanchilmaguncha ho'kizlarga ham, dehqonga ham tinchlik yo'qligi alohida ta'kidlanadi:

Chuv, hey jonvorim, hayda, maydayo-mayda,
Xirmonni qilgin mayda, maydayo-mayda.

Ishni tamom qilmasang, maydayo-mayda,
Joningga tinim qayda, maydayo-mayda.

Yanchiq ‘aytida dehqonning birdan-bir orzusi ishning sifatli bo‘lishidir. Chunki boshoqdan yaxshi ajratilgan don ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Shuning uchun ham ayrim to‘rtliklarda ish hayvonlarini yaxshiroq yanchiq qilishga undash motivlari yetakchilik qiladi:

Mayda-mayda, mayda qil, maydayo-mayda,
Qo’da turgan unday qil, maydayo-mayda.
Bul maydani bo‘lgan so‘ng, maydayo-mayda,
Utli, suvli soyda bo‘l, maydayo-mayda.

Ishning ketishidan ba’zan dehqonning ko‘ngli to‘lmaydi. Shunda u o‘zi maqtayotgan ho‘kizlariga do‘q-’o‘‘isa qiladi. Bu bilan u horib, charchagan ho‘kizlarni jonliroq ishlashga, aks holda, ularni so‘yib, terisidan etik tikajakligini aytib qo‘rqitadi:

Mayda-mayda, moybosar, maydayo-mayda,
Mayda senga yarashar, maydayo-mayda.
Sening qalin terilaring, maydayo-mayda.
Etik qilsa yarashar, maydayo-mayda.

Ish hayvonlariga do‘q-’o‘‘ja qilish motivlari tezda ularga iltijo qilish, ularni maqtash motivlari bilan almashinib turadi. Chunki dehqonning rizqi ro‘zi faqat mana shu hayvonlarning kuchi bilan bog‘liq. Shu sababli u o‘z ho‘kizlarini olqishlaydi, ularga yaxshi tilaklar bildiradi:

Maydalar qil ko‘raylik, maydayo-mayda,
Shoxingga gul taqaylik, maydayo-mayda.
Shoxingdagi gullarni, maydayo-mayda,
Yaxshilikda ko‘raylik, maydayo-mayda.

Mayda qo‘shiqlarida dehqonchilik kasbining ‘iri Bobo dehqon obrazi ham aks etgan. Uzoq ajdodlarimiz tasavvuriga ko‘ra, Bobo dehqon halol mehnat qiluvchi, o‘zgalar haqqidan hazar qiluvchi dehqonlarga hamisha homiylik

qiluvchi, ularning unumiga unum qo‘shuvchi ‘ir bo‘lib, u ayni sahar ‘aytida dehqonlar ko‘targan xirmonlarda ‘aydo bo‘lib, yetishtirilgan donning to‘kilib-sochilib ketishidan asrab, xirmon ko‘targan dehqonlar hosiliga baraka ulashadi. Mana shuning uchun ham mayda qo‘shiqlarida Bobo dehqonning xirmon ko‘rishga qadam ranjida qilish istaklari bayon etilgan:

Mayda-mayda morisin, maydaye-mayda,
Don somondan arisin, maydayo-mayda.
Tong shamoli esganda, maydayo-mayda,
Bobo dehqon dorisin, maydayo-mayda.

Mayda qo‘shiqlarining tematik doirasi keng bo‘lib, ularda; dehqonning og‘ir hayotdan nolishi, ish hayvonlariga iltijo va do‘q-’o‘‘isa qilishlaridan tortib ishqiy iztiroblargacha bayon etilgan. Masalan, quyidagi to‘rtlikda oshiqning o‘z mahbubasi-ga sovchi qo‘yganligi, lekin qizning otasi rad javobini berganligi, xullas, oshiqning ayriliq dardidan chekkan iztiroblari bayon etilgan:

‘ast-’astgina tevaning, maydayo-mayda,

Tevaragi ‘ast ekan, maydayo-mayda.

Sovchi qo‘ydim bermadi, maydayo-mayda,

Otang qurgur ‘ast ekan, maydayo-mayda.

Xullas, mayda qo‘shiqlarida qishloq hayoti, himoyasiz dehqonning qayg‘u-dardlari, yaxshi turmush haqidagi orzu-istaklari, sevgi quvonchlari-yu hijron iztiroblari to‘la aks etgan. Shuning uchun ham mayda qo‘shiqlari o‘zbek dehqonining uzoq o‘tmishini, siyosiy ongi va madaniy saviyasining rivojlanish darajasini o‘rganishda nodir manbalik vazifasini o‘taydi.G‘alla o‘rish va uni yanchish ishlari mexaiizatsiyalashgach, mayda qo‘shiqlari ham asta-sekin unutilib bormoqda. Hozir bu qo‘shiqlarning namunalari ayrim keksalarning xotirasidagina saqlanib qolgan.

Yorg‘ichoq qo‘shiqlari. Vrg‘ichoq aylantirish og‘ir va unumsiz qo‘l mehnati bo‘lib, u o‘zining tarixiy ildizlari bilan suv yoki shamol

tegirmonlari kashf etilmagan davrlarda vujudga kelgan. Keyinchalik u tog'lik joylarda yashovchi chorvadorlar, shuningdek, cho'l va dasht zonalarida kun kechiruvchi dehqonlar turmushida keng qo'llanila boshlagan. Yorg'ichoq qo'shiqlarining muhim o'ziga xosliklaridai biri faqat ayollar tomonidan ijro etilishi hisoblanadi.Kun bo'yi yorg'ichoq tortish kishini jismoniy va ma'naviy jihatdan qattiq charchatgan. Shu boisdan ham yorg'ichoq aylantirish 'aytida aytiladigan maxsus qo'shiqlar yaratilganki, ularda mehnatkash xalqning muhtojlikda yashashi, turmushining og'irligi ifodalangan:

Yorg'ichoq tortmas edim,
Och qolganimdan tortaman.
Sabzavon aytmas edim,
Kuyganlarimdan aytaman.

Yorg'ichoq qo'shiqlarining ayrim namunalarida tegirmonning afzalligi, og'ir toshni aylantirish ayol kishi uchun naqadar mashaqqatli ekanligi bayon etilgan:

Yorg'ichoqni taq-taqijon deydilar-o,
Tegirmonni rohatijon deydilar-o.
Yorg'ichoqdan horib chiqqan bandaman-a,
Xo'jahayvon bo'yni yo'g'on deydilar-o.

Mashaqqat bilan to'ilgan donni un qilib, bolalarga non, ovqat 'ishirib berish uchun ayol kishi kun bo'yi tinmay yorg'ichoq toshini aylantiradi. Mana shu 'aytda uning xayoli tirikchilik tashvishida uzoq safarga ketgan yorining omon-eson qaytib kelishi bilan band bo'ladi. Shuning uchun ayrim to'rtliklarda ayolning intizorlik bilan to'lgan mungli nidolari yetakchilik qiladi:

Yorg'ichog'im, gumbur-gumbur etadi,
Nortuyalar quloq solib o'tadi.

Karvon bilan rizq-ro‘zimiz olib,
Eson-omon og‘ajonim qaytadi.

Yorg‘ichoq qo‘shiqlarining ayrimlari satirik xarakterda bo‘lib, ularda mehnatkashlarning qonini zulukdek so‘ruvchi boy va amaldorlar hajv qilingan:

Quloq solay ovoz chiqar, yorg‘ichog‘im,
Mullalar aytgan azonday, yorg‘ichog‘im.
Boy qornining kattaligi, yorg‘ichog‘im,
Ma’rakadagi qozonday, yorg‘ichog‘im.

Fan va texnika taraqqiyoti tufayli yorg‘ichoq hamda u bilan bog‘liq qo‘shiqlar hozir saqlanib qolmagan.Chorvachilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlariO‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklar juda qadim zamonlardan chorvachilik bilan shug‘ullangan. O‘zbeklar hayotida dehqonchilik qanday o‘rin tutgan bo‘lsa, chorvachilik ham shunday o‘rin egallagan. O‘zbek xalq og‘zaki ‘oetik ijodida, asosan, sog‘im qo‘shyqlari saqlanib qolgan. Xalq o‘rtasida bu qo‘shiqlar sog‘iladigan hayvonning turiga qarab «ho‘sh-ho‘sh», «turey-turey», «churey-churey», «chiriya-chiriya» kabi nomlar bilan yuritiladi.

«Ho‘sh-ho‘sh»lar. Sog‘im qo‘shiqlarining bu turi sigir sog‘ish ‘aytida ijro etilgan. Uning asosiy vazifasi ravon va tekis ohangda cho‘zib aytiladigan qo‘shiq ritmi orqali sog‘ilayotgan sigirni tinchlantirish, uni iydirish va ko‘‘roq sut sog‘ib olishdan iborat. Shuiing uchun «ho‘sh-ho‘sh» qo‘shiqlarida chorvador yoki dehqoining suyanchig‘i bo‘lmish sigirning barcha a’zolarini, xatti-harakatini, yemishini, xususiyatlarini vasf etish motivlari yetakchilik qiladi:

Ho‘shim, molim-govmishim, ho‘sh-ho‘sh,
Emchaklaring sovmishim, ho‘sh-ho‘sh.
Oralab yeding o‘tingni, ho‘sh-ho‘sh,
Iyiblar bergin sutingni, ho‘sh-ho‘sh.

Sog‘ish ‘aytida sigir ba’zan bezovtalanadi yeki buzoqchaga ilinib sut bermay qo‘yadi. Shunday ‘aytda sog‘uvchi buzoqni si-gir oldiga olib kelib emishga qo‘yadi. Mana shundan keyin sigir iyib ketib, sutini tortmay qo‘yadi. ‘aytdan foydalanib sog‘uvchi buzoqchani tortib qo‘yib, sigirni maqtab, ‘ast ovozda qo‘shiq aytib sog‘ishda davom etadi:

Soy yoqalab o‘tlagan, ho‘sh-ho‘sh,
Bolasini yo‘qlagan, ho‘sh-ho‘sh.
Biri o‘lsa, jonivor, ho‘sh-ho‘m,
Bo‘kirishib yig‘lagan, ho‘sh-ho‘sh.

«Ho‘sh-ho‘sh» qo‘shiqlarining ayrim namunalarida an’ana-viy motivlardan chekinish hollari ham ko‘zga tashlanadi. Ularda oshiqning tong mahali sigir sog‘ayotgan ma’shuqaning mehnatidan zavqlanishi va sigirga qarata «iyib sut ber» deya qilgag‘r istaklari yetakchilik qiladi:

Hulkar tarozi og‘ar, ho‘sh-ho‘sh,
Sevganim sigir sog‘ar, ho‘sh-ho‘sh.
Sigir sog‘ar iydirib, ho‘sh-ho‘sh,
Sochini yerga tiydirib, ho‘sh-ho‘sh.

Bunday motivlar «ho‘sh-ho‘sh» qo‘shiqlariga keyin kirib kelgan bo‘lib, ular mazkur qo‘shiqlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini belgilay olmaydilar.

«Turey-turey» qo‘shiqlari. Bu qo‘shiqlar ona qo‘ylarni sog‘ish-yoki emizishda ijro etiladi. Shuning uchun ham ularda sovliqni iydirish motivlari yetakchilik qiladi:

Esli molim-oqilim, turey-turey,
Yelkamdagi kokilim, turey-turey.
Shuncha molning ichida, turey-turey,
Bog‘da ochilgan gulim, turey-turey.

Qorako‘lchilikda qo‘zi uch-to‘rt kunlik vaqtida, ya’ni barraligida so‘yiladi. Natijada, ona qo‘ylar sog‘iladi. Sog‘ish ‘aytida aytiladigan qo‘shiqlarda ona qo‘yning o‘z bolasini qidirishi, uni izlab ma’rashiga hamdardlik bildirish motivlari katta o‘rin egallaydi.

Tovlarda bor quv olma, turey-turey, :
Sovun bo‘lgin suv olma, turey-turey.
Bolangning yo‘qligini, turey-turey,
Jonvor, ko‘nglingga olma, turey-turey.

Qo‘ylar o‘z bolasining hidini yaxshi ajratishadi. Shuning uchun yangi tug‘ilgan qo‘ziga boshqa hayvonning hidi urib qolsa, ona qo‘y o‘z bolasini emizmay qo‘yadi. Shunda sog‘uvchi «agar bo-langni olmasang, seni bozorga chiqarib sotaman, itlarga emizaman, o‘zingni so‘yib tashlayman» deb sovliqqa do‘q-’o‘‘isa qiladi:.

Qo‘y ichida qorasan, turey-turey,
Aqllisan-donosan, turey-turey

Agar bolang olmasang, turey-turey,
Bozorlarga borasan, turey-turey.
Bolaginang oqqina, turey-turey,
Uyqulari soqqina, turey-turey.
Agar bolang olmasang, turey-turey,
Sag‘irdir bu boqqina, turey-turey.

Xullas, «turey-turey» qo‘shiqlari hozir juda kam ijro etiladi. Ular Qashqadaryo, Surxondaryo oblastlarining chorvador rayonlaridagina saqlanib qolgan, xolos.Churiyalar. Sog‘im qo‘shiqlarining bu turi echkilarni sog‘ish yoki uloqlarni emizish ‘aytida aytiladi. Binobarin, ularda echkini iydirish motivi yetakchshgak qiladi. Churiyalarda uloq yoxud echkining xarakterli biror belgisi – soqoli, shoxi yoki qashqasi kabilar maqtaladi va shu orqali ular sog‘ish ‘aytida tinchlanishga da’vat etiladi:

Shoxlaring bor bir tutam-a, churiya-churiya,
Minora qushlar qo‘nar-a, churiya-churiya.
Bolang olib iskasamg-a, churiya-churiya,
Kuyingan yuraging qonar-a, churiya-churiya.

Churiya qo‘shiqlarining ayrim iamunalarida sof ishqiy motivlar kuylanib, har bir misradan so‘ng faqat «churiya» so‘zi takrorlanib keladi. Ular mazmun jihatidan mehnatning bu turi bilan hech qanday bog‘lanishga ega bo‘lmasalar ham, biroq ohang e’tibori bilan sog‘im jarayonga ko‘mak beradi:

Oq yuzginang qorday bo‘lib, churiya-churiya,
Uydan chiqsang oyday bo‘lib, churiya-churiya.
Zulfakkinang, eshilibdi, churiya-churiya,
Cho‘‘on eshgan chilvirday bo‘‘, churiya-churiya.

Xulosa qilib aytganda, churiyalar bir oz cho‘ziqroq aytilishi hisobga olinmasa, o‘z funksiyalari, mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishi bilan sog‘im qo‘shiqlarining boshqa turlaridan farqlanmaydilar.Hunarmandchilik bilan aloqador mehnat qo‘shiqlari.

Hunarmandchilik dehqonchilik va chorvachilik qadar qadimiy tarixga ega emas. Chunki u ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish davrida yuzaga keldi. Darhaqiqat, bu davrda ovchilik hamda boshqa mehnat qurollarini yasashga mutaxassislashgan ayrim shaxslar bevosita hunarmandchilikning ‘aydo bo‘lishiga sabab bo‘ldilar. Keyinchalik shahar hayotining taraqqiy etishi hunarmandchilik mahsulotini sotish bilan aloqador boshqa bir mehnat turi savdo-sotiqni keltirib chiqardi, lekin mehnatning bu turi bilan aloqador qo‘shiqlar yozib olinmagan.O‘zbek xalq hunarmandchilik qo‘shiqlari orasida urchuq, charx, o‘rmak, kashta tikish, to‘n tikish, gilam to‘qish, bo‘z to‘qish bilai bog‘liq qo‘shiqlar asosiy o‘rin egallaydi. I’ yigirish, kashta, to‘n tikish, gilam to‘qish kabi mehnat turlari asosan ayollarga xos.

Do‘kon uyga kirsam, tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o‘lmay qolsam yaxshiydi.
Qarisi tillaga ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo‘zim arzon ketarmi.

Bo‘zchi qo‘shiqlarining ayrim namunalarida to‘quvchining o‘z mehnati samarasidan quvonchi, dastgohidan mohirona foydalana olish malakasidan

ko‘ngli to‘lishi ham zavq bilan kuylangan. Bunday to‘rtliklarda bo‘zchining o‘z dastgohiga, uning har bir murvatiga, ayniqsa mokiga murojaat qilib, uni ishning to‘xtovsiz davom ettirishga da’vat qiladi:

G‘o‘ladan ilgari dastgoh,
‘osh’urtlarni urdim ‘astga,
Siring aytma yoru do‘stga,
Utgin, qora mokim endi.
G‘arg‘ara undan yuqori,
Sinacho‘‘ uning no‘kori.
Hay-hay ustamning do‘koni,
O‘tgin, qora mokim endi.

Yengil sanoat, ayniqsa to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi, butun texnik jaryonning avtomatlashtirilishi oddiy to‘qish dastgohlarini siqib chiqardi. Natijada, bo‘zchilar qo‘shiqlari ham asta-sekinlik bilan unutildi.O‘rmak qo‘shiqlari. O‘zbeklar o‘rtasida o‘rmak o‘rish, ya’ni gi-lam, sholcha to‘qish keng tarqalgan bo‘lib, ana shu mehnat jarayonida ijro etilgan qo‘shiqlar o‘rmak qo‘shiqlari deb yuritiladi. Gilam yoki sholcha to‘qish bo‘z to‘qishdan ham og‘ir, mashaqqatli bo‘lib, u kishidan katta sabot va g‘ayrat talab etadi. Shuning uchun o‘rmak qo‘shiqlarida to‘quvchilarga g‘ayrat tilash, ularni tezroq ishlashga da’vat etish motivlari ko‘‘ uchraydi:

O‘rmagimni to‘qiymai,
Kecha-kunduz to‘qiyman.
Qachon tamom bo‘ladi,
Deb ashula to‘qiyman.

Ilgari tuya junidan to‘qilgan matolar.mahalliy bozorlarda qimmat baholarda sotilgan. O‘rmak atamasi dastlab ana shunday materiallar to‘qilishiga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa ham, keyinchalik bu atama asosan gilam, sholcha to‘qishga nisbatan qo‘llana boshladi.Kashta qo‘shiqlari. O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek xalqi juda qadim zamonlardan kashta tikish san’ati bilan mashhur. Shuning uchun o‘zbeklar o‘rtasida kashtaning

bosma, jimalay, sanama, ilma kabi turlari yuzaga kelganki, ularning har biri kashtachidan alohida mehnat va mahorat talab etadi.Kashta tikishni har bir qiz yaxshi bilishi, o‘z se’i uchun zarur kashtalarni tikishi shart bo‘lgan. Binobarin, kashtaning turiga qarab qizning qandayligiga ham baho berishgan va bu narsa kashta qo‘shiqlarida o‘z ifodasini to’gan:

Bosma tikkan botir qiz,
Jimalay tikkan chevar qiz
Sanama tikkan sardor qiz,
Ilma tikkan ilgir qiz.

Shundan so‘ng kashtaning u yoki bu turiga xarakteristika berilib, ularni tikishda sarflangan mehnat vasf etiladi:

Bosma tikar botirib,
Issiq suvga qotirib.
Shuning uchun botir qiz,
El ko‘rganda shoshirib.
Jimalayni te’ib tikar,
Ko‘z nurini selday to‘kar.
Guli tekis bo‘‘ chiqmasa,
Ko‘rgan kishi bo’lab so‘kar.

Feodalizm sharoitida boy va amaldorlar uy bekalaridan, «cho‘rilardan kashta tikishda ham foydalanganlar. Shu sababli kashta qo‘shiqlarining ayrim namunalarida kashtado‘zlarning rahmsiz boylar tomonidan shafqatsiz eks’luatatsiya qilinishi qoralangan:

Kashta tiktiradi boy,
Kashta guliga gadoy.
Kecha-kunduz tik deydi,
Nega yuribdi o‘lmay?

Xullas, o‘zbek xalq mehnat qo‘shiqlari juda boy va janr e’tibori bilan rang-barang bo‘lib, ular mehnat jarayonlarining mexanizatsiyalashishi va avtomatlashtirilishi, mehnat qurollarining tabiatida yuz bergan o‘zgarishlar, muayya’ mehnat turining butunlay yo‘qolishi bilan bog‘liq holda asta-sekin yo‘qolib bormoqda. Jonli ijroda qo‘llanmaslik, qo‘shiqni biladigan keksa avlodning kamayib borishi tufayli ularning aksariyati butunlay unutilib

ketmoqda. Shu boisdan mehnat qo‘shiqlarini to‘‘lash va g‘oyaviy-badiiy jihatdan tadqiq etish katta ilmiy, amaliy ahamiyat kasb etadi.Lirik qo‘shiqlar. Lirik qo‘shiq atamasi shartli ravishda xalq qo‘shiqlarining ma’lum bir turiga - ishq-muhabbat mavzuida yaratilgan, bir ki shi yoki bir necha kishi tomonidan ijro etiluvchi mustaqil to‘rtliklardan iborat og‘zaki she’riy asarlarga nisbatan qo‘llanadi.Real voqelikni shaxsning kechinmalari orqali aks ettiruv-chi, sevgi va vafo, hijron va sog‘inch, alam va o‘kinch, kishilar qalbidagi o‘tli dard tufayli vujudga kelgan, faqat kuylash. uchui yaratilgan mustaqil to‘rtliklar lirik qo‘shiq deyiladi.Lirik qo‘shiq – xalq og‘zaki ‘oeziyasining mustaqil janri.. Uning e’ik ‘oeziyadan farqli xususiyati shundaki, lirik qo‘shiq-da kishi qalbida tug‘ilgan his-tuyg‘ular muayyan obraz va ‘red-metlar tasviri orqali aniq shaklga kirad’ va konkretlashadi. Shuning uchun lirik qo‘shiqlarda xalqning nozik his-tuygulari, kechinma va orzulari butun tarovati hamda oqilligi bilan aks etadi. Chunki go‘zallikning o‘zida she’riyat va musiqa mujassam-lashganidek, har qanday haqiqiy she’riyat va musiqada ham go‘zallik mavjud. N. A. Dobrolyubov ta’biri bilan aytganda, ha-qiqiy yuksak ‘oeziya ana shu uch asos - go‘zallik, ezgulik va oqilonalikning to‘la mujassamlashuvidan tarkib to’adi. Demak, lirik qo‘shiqlarning asosini dardnok mazmun, dono fikr va maftunkor musiqaviylik tashkil etadi.Xalq lirik qo‘shiqlari yozma adabiyotdagi lirik she’rlarga ko‘‘gina jihatlari, xususan, voqelikni konkret shaxs kechinma-lari orqali aks ettirishi bilan yaqin turadi. Biroq yezma ada-biy lirik she’rlardagi kechinmalar o‘ta individual xarakter kasb etsa, og‘zaki lirik qo‘shiqlardagi kechinmalar esa umum-lashgan – kollektiv kechinmalari bilan uyg‘unlashgan holda ifodalanadi.Lirik qo‘shiqlarning mustaqil janr sifatidagi muhim xu-suyeiyatlaridan biri ularning istalgai joyda, istalgan shaxs tomonidan ijro etilishi hisoblanadi. Masalan, sadoqatli sevgi yoki bevafo yor haqidagi qo‘shiqni ish ‘aytida ham, safar cho-g‘ida ham, dam olganda yoki to‘y marosimida ham ijro etish mum-kin. Demak, lirik xalq qo‘shiqlarining

maishiy vaziyat, maro-sim yoki boshqa biror joy bilan bog‘liqligi yo‘q.Lirik qo‘shiqlar odatda xalq o‘rtasida tekstni yaxshi biluvchi, hofizasi kuchli, yoqimli ovozga ega bo‘lgan shaxslar tomoni-dan ijro etiladi. Bunday ‘rofessional ijrochilar xalq o‘rta-sida qo‘shiqchi, ashulachi yoki hofiz deb yuritiladi. Biroq bu narsa lirik qo‘shiqlarning ijrosi faqat ‘rofessional qo‘shiq-chilar bilan bog‘liq degani emas. Lirik qo‘‘gaqni istalgan shaxs,. istalgan joy yoki vaziyatda ijro etishi mumkin.Lirik qo‘shiqlar badiiy-tasviriy vosita va usullarining rang-barangligi, ramzlarga boyligi bilan e’ik yok-i marosim loeziyasidan farqlanib turadi. Bu narsa lirik qo‘shiqlarda shaxsiy kechinmalarni jonli, konkret ifodalash ehtiyojidan kelib chiqqan.O‘zbek lirik qo‘shiqlarida ishq-muhabbat mavzui yetakchi o‘rin egallaydi. Ushbu mavzuda yaratilgan qo‘shiqlarda chin muhabbat- ni ulug‘lash, yorga sadoqatli  bo‘lish, mahbubaga intizorlik motivlari tarannum etiladi:

Havoni bulut bosdi,
Oyni ko‘rmasam bo‘lmas.
Yuraklarni g‘am bosdi,
Yerni ko‘rmasam bo‘lmas.

Osmonni bulut qo’lagan tunlarda kishi oyni ko‘rishga mush-toq bo‘lganidek, ko‘ngilni g‘am-anduh kemirgan kezlarda oshiq o‘z ma’shuqasini qo‘msaydi. Tabiat lavhalari bilan lirik qah-ramon kechinmalarini qiyoslash, ya’ni jonli, nozik ‘sixologik ‘arallelizmlar qo‘llash kishi qalbidagi ruhiy iztiroblarni konkret obrazlar sifatida shakllantirishga ko‘mak bergan.Har bir kishi o‘zini biror narsa yoki mashg‘ulot bilan ovuntirib yashaydi. Masalan, yosh bolaning yog‘och otga minib, o‘zini ovutish detalini oling. Ular uchun ana shu ovunchoqdan o‘zga narsa yo‘q. Mana shu oddiy hayotiy detal oshiqning o‘z ma’shu-qasiga bo‘lgan intilishiga qiyoslansa, lirik qahramon kechinmalarining konkret jonlanishiga, obraz sifatida shakllanishiga olib keladi. Chunki bunday qiyos

oshufta yurakning bedavo dardiga malham izlashi, yerini eslab o‘zini ovuntirishini konkret ifodalashga imkon beradi:

Yosh bolalar o‘ynaydir,
Tol yogochdan ot qilib.
Oshiq yigit yig‘laydir
Suyganini yod qilib.

Lirik qo‘shiqlarda bevafo yor iztirobi, sog‘inch azobi aniq hayotiy lavhalarda tasvirlangan. Bunday tasvirlarning hayo-tiyligi, realizmi juda ko‘‘ jihatlarda ko‘zga tashlanadi. Ma-salan, beva.fo o‘zi tark etgan yordan qochishga, unga qorasini ko‘r-satmaslikka intiladi. Biroq u o‘zini olib qochishga qancha urin-sa, oshiqda uni ko‘rishga bo‘lgan ishtiyoq shuncha kuchayadi. Nogahon oshiqning ko‘zi bevafo yorga tushib qolsa, oshuftaligi, dilxun-ligi yana ortadi; asta-sekin unutilayotgan azobu qiynoqlar yana jonlanadi. Mana shu nozik ruhiy holat va kechinmalar quyida-gi to‘rtlikda to‘laqonli ifodalangan:

Yor, tashlab ketding meni,
Hardamxayol etding meni.
Bo‘ylaring bir ko‘rsatib,
Ko‘rmakka zor etding meni.

Odatda, xalq qo‘shiqlari haqida fikr yuritilganda og‘zaki lirikada ‘oetik mazmun juda sodda va lo‘nda bayon etiladi, deyiladi. Bu – asosan to‘g‘ri hukm. Biroq o‘zbek xalq lirik qo‘-shiqlari orasida shunday namunalar ham borki, ularda oshiq-lik bobida o‘zini tanho hisoblash, o‘z sevgisi yo‘lida jonini, hayotini fido qilishga tayyorlik kayfiyati juda nozik, ‘ardali bir tarzda ifddalangan. Bunday qo‘shiqlarni tahlil etish tinglovchidan chuqur mulohaza, mantiqiy dalillash mahoratini talab etadi. Masalan, quyidagi to‘rtlikni oling:

Qoshlaring qarosiga qotgin meni,
Oshiqlar bozorida sotgin meni.

Oshiqlar bozorida olmasalar,
Ki’riging o‘qi bilan otgin meni.

Mazkur to‘rtlikning birinchi misrasi butun to‘rtlikning ‘oetik mazmunini, qo‘shiq mohiyatini ochib berishda kalitlik va-zifasini o‘taydi. Chunki bu misrani ikki ma’noda izohlash mum-kin. Birinchisi – oshiq o‘z mahbubasiga murojaatetib: ishqing o‘tida meni shafqatsiz kuydirgin va yonib ko‘mirga aylangan jismimdan qoshingning qoraligini kuchaytirishda bo‘yoq vazi-fasida foydalan, demoqchi. Ikkinchi talqin esa shundayki, oshiq o‘z mahbubasiga murojaat etib, men senga shu qadar dilbasta bo‘lganma’ki, bir lahza ham sendan ayrila olmayman, shuning uchun meni qoshingning qorasiga qotgin, toki men doim sen bilan birga bo‘lay, demoqchi.

Keltirilgan ikki xil talqindan birinchisi haqiqatga yaqin. Chunki xalq ijodida, shuningdek, Sharq klassik she’riyatida oshiq – mahbus, ma’shuqa –hokimi mutlaq; oshiq – xokisor, mahbuba – shafqatsiz malak.Demak, klassik va og‘zaki ‘oeziyada ham mahbuba ishq bobida tengsiz zulmkor, oshiq esa itoatkor qul sifatida talqin eti-ladi. Mana shu mantiqdan kelib chiqilsa, oshiqning beadad ishq; o‘tida kuyib jizg‘anak bo‘lishi aniq. Mahbuba esa o‘z rahmsizligi tufayli uning kuygan jasadidan qoshiiing qoraligini orttirishda bo‘yoq sifatida foydalanishga ham tayyor. Binoba-rin, oshiqning mahbuba qoshining qoraligiga qotilishi haqidagi; istagi asosida an’anaviy ‘oetik mantiq – ishq o‘tida kuyib ko‘-mirga aylanish istagi yotibdi.Qo‘shiqning ikkinchi misrasi birinchi misrada ifodalangan mazmunni quvvatlashuchun xizmat qiladi. Unda oshiqning ishq bobida tanho ekanligi haqidagi da’vosi bayon etilgan. Ishq o‘tida kuyib ma’shuqa qoshiiing qoraligiga qotilishga rozi bo‘lgan oshiq, albatta, o‘zini muhabbat bobida tanho hisoblaydi. Shuning uchun ham mahbuba oshiqniig ishq bobida tanholigiga ishonmagan taqdirda oshiqlar bozoriga olib borib narxini' bilishni taklif qilmoqda. Chunki bozorda faqat arziydngan matoga

xaridor yo'ishadi. Oshiq o'zini ishqda tanho hisoblar ekan, demak, oshiqlar bozorida o'zishshg yaxshi narxda sotilishiga shubha qilmaydi.To'rtlikning uchinchi va to'rtinchi misralari esa yuqoridagi mulohazalarning to'g'riligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ularda aytilishicha, agar oshiqlar bozorida uning xaridori bo'lmasa, oshiqligi yolg'on va u o'limga mahkum. Bu o'lim esa mahbubaning nasib etmas g'amzalaridan keladi. Shuning uchun ham oshiq yori-ga murojaat etib, oshiqlar bozorida meni hech kim olmasa, ya'ni: men haqiqiy oshiqlikda tanho bo'lmasam, ki'riging o'qi bilan otib o'ldirgin, deydi.Xullas, ishq bobida tanholik, jon fidolik va oshuftalikning bundan nozik hamda latif tasviri bo'lmasa kerak. Bunga o'xshash to'rtliklar lirik qo'shiqlarning mulohazatalab va bo'yoqdorligini ko'rsatadi.

O'zbek an'anaviy lirik qo'shiqlarida mungli ohang, zamona-dan nolish, zamona zayli tufayli visolga erisha olmagan oshiq-ma'shuqalarning oh-zori kuchli yangraydi. Xotin-qizlarnins zulmatda, jaholatda hayot kechirishi, o'z sevgisi bilan turmush-ga chiqa olmasligi xalq qo'shiqlaridagi g'am-hasrat nidolari-ning kelib chiqishiga sabab bo'lgan:

Suv oqar tosh ustida,
Sallachang qosh ustida.
Suyganim esga tushsa,
Yig'layman osh ustida.

Zamona nosozligi, johil ota-onalarning bag'ritoshligi ko''incha xotin-qizlarning taqdirga tan berishga, o'z sevgilaridan voz kechishga olib kelgan. Oz bo'lsa-da, qo'shiqlarda tushkunlik kayfiyatini ifodalovchi to'rtliklarning mavjudligi ana shundan:

Oq olma, qizil olma,
Olmaga nazar solma.
Otam senga bermaydi,
O'z bilganingdan qolma.

Sotsial tengsizlik sevgiday nozik va noyob tuyg‘uni to’tab, hamma narsani ‘ul, mol-dunyo bilan sotib olishga majbur etgan. Shu bois ko‘‘gina ota-onalar yo nochorlikdan, yo muhtojlikdan qutilish maqsadida o‘zlarining o‘n gulidan bir guli ochilmagan qizlarini qari chollarga turmushga uzatganlar. Bunday nohaqlik lirik qo‘shiqlarda juda ta’sirchan ifodalangan:

Tunnukda bir oy ko‘rdim,
Bir oq qashqa toy ko‘rdim.
Un besh yashar chog‘imda,
Sakson yashar chol ko‘rdim.
Yoki:
Ot boyladim xariga,
Xaridan ham nariga.
Otam meni sotdilar
O‘zlaridan qariga.

Yuqoridagi kabi hasrat va mungli qo‘shiqlar xalq lirikasida belgilovchi rol o‘ynamaydi. Aksincha, o‘z sevgisiga sodiq qolish, yor uchun jonini fido qilish, ishq yo‘lida har qanday jabru jafolarga bardosh berish motivlari lirik qo‘shiqlarda leytmotivlik vazifasini o‘taydi:

Suv kelar guldir-guldir,
Suyganim qizil guldir.
Suyganim to’ilmasa,
O‘lganim o‘shal kundir.

O‘zbek xalq lirik qo‘shiqlari o‘zlarining badiiylik jihati bilan diqqatga sazovor. Qo‘shiqlardagi ritmik jihatdan mis-ralararo uyg‘unlik kasb etishi, o‘ynoqi vazn va to‘liq qofiyalar, hayratomuz ramzlar mazmunni ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.Xalq qo‘shiqlarining vazn xususiyatlariga diqqat qilinsa, aksariyat qo‘shiqlar 7-8 bo‘g‘inli barmoq vaznida yaratilganli-gini ko‘rish mumkin. Chunki bunday vaznlar yengil hamda o‘yno-qiligi, kuylashga qulayligi bilan alohida ajralib turadi-lar. Qolaversa, bunday yengil vaznlar tekstning xotirada saq-lanib qolishiga ham ko‘mak beradi.

Masalan, quyidagi to‘rtlik yetti bo‘g‘inli barmoqda yaratilgan bo‘lib, qo‘shiqning har bir misrasi bir nafas bilan ijro etilishga mo‘ljallangan. Misralar o‘rtasidagi ohangdoshlik esa to‘liq qofiya va takrorlar vositasida ta’minlangan:

Boqqa kirmang bodom bor,
Uyga kirmang odam bor.
Odam bo‘lsa mayliga,
O’’oq soqol dadam bor.

Xalq qo‘shiqlaridagi ko‘‘gina to‘rtliklar aruz sistemasiga ham tushadi. Bu vaznlar, Alisher Navoiy to‘g‘ri ko‘rsatganidek, ramali musammani mahzuf (foilotu’, foilotun, foilotun, foilun) vazniga to‘g‘ri keladi:

Yor agar o‘ltirsalar, avval qo‘limni bog‘lasin,
Do‘stlarim g‘amgin bo‘lib, dushmanlarni shod aylasin.
Yorginam, ochgin chiroy, ishqingda men qandoq qilay,
Sen yotib oromni olgin, men yurib yulduz sanay.

Aruz sistemasidagi bu o‘ynoqi vaznda qisqa va cho‘ziq unli tovushlarning tabiiy uyg‘unlashuvi orqali mos kelishi qo‘shiq mazmunini ta’sirchan, ohangdor ifodalashga imkon bergan.Lirik qo‘shiqlarni go‘zal ramzlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki murakkab va mavhum tushunchalarni, nozik ke-chinma va holatlarni barchaga tushunarli an’anaviy obrazlar – ramzlar orqali lo‘nda bayon etish qo‘shiqlarning ohangdorligi, ta’sirchanligini ta’minlash bilan bir qatorda ulardagi obrazlilikni oshirishga ham xizmat qiladi. Lirik qo‘shiqlarning mazmuniy chuqurligi va boyligini ramzlarda ifodalangan ma’no tovlanishlarini aniqlamay turib to‘g‘ri anglash mumkin emas. Chunki lirik qo‘shiqlardagi ramzlar shu qo‘shiqlarning haqiqiy mazmunini to‘g‘ri anglashning kaliti vazifasini o‘taydi. Misol uchun o‘zbek lirik qo‘shiqlarida ke’g qo‘llaniladigan «olma» ramzini oliig.Olma lirik qo‘shiqlarda sevgi, yor tanlash ramzi sanaladi. «Olma guli» obrazi esa yolg‘on, o‘tkinchi sevgining ramzi bo‘lib keladi. Ramzning bunday ma’no anglatishi olma gulining tez

to‘kilib kstishi va mustahkam emasligiga asoslangan. Ramz va o‘tkinchi sevgi tushunchalari o‘rtasidagi assotsiativ aloqa quyidagi to‘rtlikning ma’nosini to‘g‘ri anglab olishga xizmat qilgan:

Olma guli gul emas,
Taqsam chakkamda turmas.
O‘zganing yori yor emas,
Bir’as yoningda turmas.

Darhaqiqat, olma guli gul bo‘lib uzoq turolmagandek, boshqaning yori ham hech qachon yoningda dildorlik qilib tura olmay-di, degan g‘oya ramziy obraz (olma guli) va hayotiy obraz (o‘zga-ning yori)’ing taqqoslanuvi orqali nozik bayon etilgan.Lirik qo‘shiqlarda olma, tol, behi, shaftoli, bodom, gul, anor kabi daraxt va o‘simliklardan; g‘oz, o‘rdak, qaldirg‘och, turna, ka’tar kabi qushlardan; ro‘mol, tamaki kabi narsalardai; tog‘, ko‘l, bozor, mozor kabi tabiat ko‘rinishlari va joylardan; oq, qora, qizil, sariq, ko‘k kabi ranglardan; xol, qosh, gajak kabi inson qiyofasiga xos detallardan iborat ramzlar ko‘‘ uchraydi va ularning barchasi qo‘shiqlar mazmunini, ular asosida yotgan g‘oyalarni izohlashning muhim vositasi hisoblanadi.E’itetsiz ta’sirchan lirik qo‘shiqning o‘zi ham yo‘q. Binobarin, dil dardiga malham bo‘la oladigan har qanday qo‘shiq chi-roy;sh e’itetlarsiz o‘z shukuhini, ta’sirchanligini yo‘qotadi. Chunki e’itet tasvirlanayotgan obraz yoki ‘redmetning muhim va barqaror xususiyatini aniq ko‘rsatish, uning sifatlarini ta’-riflash uchun xizmat qiladi:

Yorim keladi yashnab,
Zar kokilini tashlab.
Xi’cha belini ushlab,
Shakar labini tishlab.

Yorning ta’rifu tavsifini, alohidaligi va dilbarligini zar, xincha, shakar e’itetlarisiz tasvirlab bo‘lmaydi. Darhaqiqat, yorining kokili shunchaki oddiy kokil emas, balki zar ko-kil; beli esa beo‘xshov emas, balki xi’cha, demak, oshiqning yura-giga o‘t soluvchi bel; labi esa shakardek shirii.

Keltirilgan bu to‘rtlikdagi e’itetlar yorning tashqi tasviri, dilbar va yoqimliligini aniq tasvirlashga imkon bergan.Xullas, o‘zbek xalq lirik qo‘shiqlari o‘xshatish, istiora (me-tafora), mubolag‘a, sifatlash, kichraytirish, jonlantirish ham-da ramzlarga juda boy bo‘lib, ular qo‘shiqlarning g‘oyaviy-badi-iy asoslarini to‘g‘ri yoritishda belgilovchi rol o‘ynaydilar.Tarixiy qo‘shiqlar O‘zbek folklorida tarixiy qo‘shiqlar juda qadim zamon-lardan mavjud. Uning ilk namunalari Mahmud Qoshg‘ariynint «Devonu lug‘otit turk» asari orqali bizgacha yetib kelgan.Tarixiy qo‘shiqlarning janr xususiyatlaridan eng muhimi asarning tarixiy konkret shaxs yoki tarixiy voqealarga asos-lanishi, ularning tarixan konkretlikda she’riy shaklda aks ettirishi hisoblanadi. Demak, konkret tarixiy shaxs yoki voqealar tasvirlangan she’riy asar tarixiy qo‘shiq sanaladi.Uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tish natija-sida tarixiy qo‘shiqlarning bir nechta ti’lari vujudga kelgan. Birinchi ti’i izchil syujetga ega bo‘lmagan, shaklan lirik qo‘-shiqlarga yaqin bo‘lgan tarixiy qo‘shiqlardan iborat. Qo‘shiqlarning bu ti’ida izchil syujetlilik bo‘lmasa ham, biroq asar-da konkret tarixiy shaxs faoliyati yoki real tarixiy voqea tasvirlanganligi sababli barcha to‘rtliklar muayyan kom’ozitsion izchillikda birikadilar.O‘zbek xalq ijodida tarixiy qo‘shiqlarning mazkur ti’iga oid asarlar talaygina yaratilgan. «Buvishoyga», «Zebijon», «Tursunoy marsiyasi», «Mardikor qo‘shig‘i», «Mashrabxon» kabilar shular jumlasidandir.Bunday tarixiy qo‘shiqlarning davr voqealariga hozirja-vobligi, shaklan xalq terma qo‘shiqlariga yaqinligi va omma-viyligi ularning ko‘‘lab yaratilishlariga sabab bo‘ladi.Tarixiy qo‘shiqlarning ikkinchi ti’i faqat irofessional baxshilar (dostonchilar) tomonidan yaratilga’ syujetli asar-lardan iborat. Shu bois bu ti’ga mansub tarixiy qo‘shiqlar iz-chil, qisqa va dramatik syujetga egaligi bilan xalq qo‘shiqlaridan ko‘ra xalq e’osiga yaqnnroq turadi. Islom shoir Nazar o‘g‘lining «Tinchlik jarchisi», Xolyor Abdukarim o‘g‘lining «Amir qochdi», Umir shoir Safar o‘g‘lining «Qoraqum», «Dasta-gul» kabi asarlari shular jumlasidandir.Bu ti’dagi

